

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI
A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
“O'ZBEKISTON TARIXI” KAFEDRASI**

**Tarix fakulteti IV kurs tolibi
Soatov G'ofur**

**“Tasdiqlayman”
Tarix fakul'teti dekani v/b:
_____ dots.A.Tangirov
«____» _____ 2011 yil**

***BITIRUV
MALAKAVIY ISHI***

**Mavzu: Arab istilosi arafasida O'rta Osiyo mahalliy voha
davlatlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti.
(So'g'd, Ustrushona, Tohariston, Choch, Farg'ona misolida)**

Ilmiy rahbar:

t.f.n.dots.A.Pardayev

Taqrizchilar:

Ushbu BMI “O'zbekiston tarixi” kafedrasining «____» _____dagi «____» _____sonli majlisida
muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan

Jizzax – 2011

Mavzu: Arab istilosi arafasida O'rta Osiyo mahalliy voha davlatlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti. (So'g'd, Ustrushona, Tohariston, Choch, Farg'ona misolida)

R e j a:

Kirish

I-Bob: So'g'd va Tohariston mahalliy voha davlatlarining tashqil topish jarayonlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayoti

- 1.1. So'g'd va Tohariston voha davlatlarining tashqil topish jarayonlari.
- 1.2. So'g'd va Tohariston voha davlatlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.
- 1.3. So'g'd va Tohariston aholisining diniy e'tiqodi va madaniyati.

II-Bob: Ustrushona, Choch va Farg'ona mahalliy davlatlarining tashqil topishi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti

- 2.1. Ustrushona, Choch, Farg'ona mahalliy davlatlarining tashqil topishi
- 2.2. Ustrushona, Choch, Farg'ona mahalliy davlatlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.
- 2.3. Ustrushona, Choch, Farg'ona aholisining diniy e'tiqodi va madaniyati.

III-Bob: "Arab istilosi arafasida O'rta Osiyo shaharliq voha davlatlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti. (So'g'd, Ustrushona, Tohariston, Choch, Farg'ona misolida)" mavzusini tarix darslarida o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarda foydalanish usullari

- 3.1. Mavzuni o'tishda an'anaviy usuldan foydalanish.

Xulosa:

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Mundarija:

Kirish

Yurtimizning milliy istiqlolga erishish sharofati bilan o'zbek xalqining etnik tarixini chuqur o'rganish va uni haqqoniy, rostgo'ylik asosida yoritish hamda milliy qadriyatlarimizni tiklash vaqti keldi.

Yurtboshimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganlaridek, «Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, biz bosib o'tgan yullarimizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o'tmishimizdagi boy an'alarimizni yangi jamiyat qurilishiga tadbiq etmog'imiz kerak»¹.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, milodiy V-VII asrlar, ya'ni arab istilosi arafasida To'ron diyorida muhim siyosiy voqealar sodir bo'lgan. Dastlab diyorimizga eftal qabilalarining kirib kelishi va ularning mahalliy voha davlatlari ustidan hukmronligi boshlangan.

Eftaliylarning Movarounnahr hududiga qachon kelib o'rnamashganligi noma'lum. Chin solnomalarida eftaliylarni Toharistonda IV asr oxiri — V asr o'rtalarida bo'lganligi tilga olinadi. Lekin ular oldinroq kelgan bo'lishi kerak. Chunki V— VI asrlarga oid manbalarda, masalan Prokopiylar Kessarskiyning axborotida, eftaliylar shahar va qishloqlarda yashovchi o'troq aholi bo'lganligini qayd qilgan. So'zsiz shu davrlarda eftaliylarning katta qismi eftaliylardir. Ammo ularning jangovor guruhlar ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchilikda yashagan bo'lishlari kerak. Arab manbalarida eftaliylar xaytal nomi bilan tilga olingan. Muqaddasiy Yoqut va Mas'udi axborotlarida Movarounnahr aholisining talaygina qismi xaytallar (eftaliy) bo'lganligini qayd etadilar. V—VI asr o'rtalarigacha Movarounnahrda siyosiy hayot ham eftaliylar hukmronligida bo'lgan. Bular So'g'diyenani, Shoshni, Ustrushonani, Farg'onani va Sharqiy Turkistonni egallaganlar.

¹ Islom Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddas. Toshkent, «O'zbekiston» 1995, 176-bet.

Eftaliylar, Eron Sosoniylari bilan urushib, V asr oxirlarida Xurosonda ham o'z xukmronliklarini o'rnatgan edilar. O'rta Osiyoda yirik Eftaliylar imperiyasi vujudga keladi. Ammo bu imperiyaning hukmronligi abadiy emas edi. Urta Osiyoda yangi imperiya — Turk hoqonligi tashqil topadi.

V-VII asrlarda faoliyat ko'rsatgan mahalliy voha davlatlari bo'lgan So'g'd, Tohariston, Farg'ona, Choch, Ustrushona hududiy jihatdan Eftallar davlati va Turk hoqonligi davlatiga kiritilgan bo'lsalarda, ular siyosiy jihatdan mustaqil davlat edilar.

Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda hukm surgan mayda davlatlarda va ularning viloyat hokimliklarida ma'lum tartibdagi boshqaruv ma'muriyati tashqil topgan. Uning pog'onalarida saroy xo'jaligining boshqaruvchisi farmondor va bosh kotib dapirpatdan tortib soliya yig'uvchi vozkirom — miroxo'r, jallod, bosh novvoy, bosh sohiy va sarkardagacha munosib o'rin egallagan.

Yirik shaharlarda o'rnashgan viloyat hokimlari xvabu va xvatov deb yuritilgan. O'z mulklarini boshkarishda ular asosan chokarlarga suyanardi. Feodal munosabatlar harbiy qo'shin to'zilishiga ham ta'sir qilgan. Otliq askar — suvoriylar dehqonzodalardan, piyodalar esa mehnatkash aholidan yollangan va tug'ma qullardan to'zilgan.

Ilk o'rta asr boshqaruq ma'muriyatining asosiy vazifasi fuqarolardan boj, solif va yasoqlarni o'z vaqtida yig'ib olish, jamoat ishlariga ularni safarbar etishdan iborat edi. Ma'muriyat o'z vazifasini astoydil bajargan. Kirim-chiqimlar aniq va ravshan qayd etilib, hujjatlashtirilgan. Ularga barmoq bosilib, hatto muhr bilan tasdiqlab qo'yilgan.

Mamlakatni boshqarishda ham an'anaviy tartib va udumlarga amal qilingan. Narshaxiyning yozishicha, VII asr oxirlarida Buxoro taxt vorisining hali go'dakligi tufayli uning tul qolgan onasi yurti boshqargan².

² A.Asqarov. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. T., "Universitet", 2007, 143-bet.

Malika Buxoroda donolik bilan hukmronlik qilgan, xalq unga itoatda bo'lgan. U shunday tartib o'rnatgan edi. Malika mulozimlari bilan har kuni arkning Registon darvozasi oldiga kelib, taxtga o'tirgan. Malikzoda va dehqonzodalardan ikki yuz yigit bellariga zarrin kamar va qilich taqib kechgacha saf tortib xizmatda turishgan. Malika podshohlik ishlari bilan mashg'ul bular, yaxshilikka da'vat qilib, yomonlikdan qaytarar, istagan kishisiga sarpo kiygizib, istagan kishisiga jazo berar edi. Quyosh botgach malika qasrga qaytgan. Ertasi kuni boshqa jamoadan yana 200 dehqonzodalar ikki qator saf tortishib, xizmatda lol qotardi. Shu tarzda har bir jamoaning bir yilda to'rt marotaba xizmatga kelishi lozim edi. Narshaxiyning bu ta'rifi bo'yicha birgina buxorxudotlarning viloyat hokimligini boshqaruvida qariyb 18 ming mulozim navbat bilan xizmat qilgan.

Shuni ta'kidlash urinliki, asrlar davomida o'zlashtirilib obod etilgan Buyuk Turkiston diyorida mazlumlarning mashaqqatli mehnati bilan yetishtirilgan noz-ne'matlar, to'plangan turli-tuman boyliklardan hamma vaqt asosan zodagon tabaqa vakillari bahramand bo'lardi. Ular hashamatli qasr va qo'shqlarda yashar, qimmatbaho kiyimlaru oltin, kumush va javohir taqinchoqlarda, zarrin kamarga qilich taqib taxt va ot ustida mamlakatning mazlumlari tepasidan hukmronlik qilardi.

I-Bob: So'g'd va Tohariston mahalliy voha davlatlarining tashqil topish jarayonlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayoti.

1.1. So'g'd va Tohariston voha davlatlarining tashqil topish jarayonlari.

Mulkdorlik munosabatlari rivoj topib, mamlakat siyosiy jihatdan zaiflashuvi oqibatida V—VI asrlardayoq Movarounnahr bir qancha mayda davlatlarga bo'linib ketadi. Natijada uning hududida ayrim viloyat va vohalarda yirik shaharlarga tayangan 15 dan ortiq mahalliy voha hokimliklari tashqil topgan edi. Bunday davlatlarning eng yiriklaridan So'g'dda ixshidlar, Toharistonda malikshoxlar, Xorazmda xorazmshoxlar, Choch va Iloqda tudun va dehqonlar, Farg'onada ixshidlar hukmronlik qilardilar.

V—VII asrlarda bu mahalliy davlatchalar, avvalda eftallar, so'ngra Turk hoqonligiga bo'ysundirilgan bo'lsada, ammo eftallar ham, turklar ham ularning ichki hayotiga aralashmaydilar. Markaziy hokimiyatga boj to'lab turish bilan o'z mustaqilliklarini ma'lum darajada saqladilar. Bu davlatlarning hukmdorlari o'z atrofidagi mulkdor zodagon dehqonlar va ularning harbiy choparlariga tayanardilar. Chunki ular o'zaro bir-birlari bilan dushmanlik kayfiyatida bo'lib, shu boisdan biri ikkinchisidan cho'chigan holatda yashar edilar³.

Ular orasida eng yirigi Samarqand ixshidligi bo'lib, u So'g'diyonaning mahalliy davlatlari konfederatsiyasi tarkibida katta nufuzga ega edi. Bu ittifoqda asosan Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarida joylashgan Samarqand, Maymypg', Ishtixon, Kushoniya, Vardona, Buxoro, Kesh va Naxshab mulklari birlashgan edi. Bu mulklarning har biri o'z hokimiga va harbiy chokarlariga ega bo'lgan. Ularning ko'pchiligi Samarqand ixshidiga siyosiy jihatdan tobe bo'lsada, ammo Buxoro, Kesh va Naxshablar deyarli mustaqil edi, xatto ular o'z

³ Sh.Karimov, R.Shamsutdinov. Vatan tarixi. T., "O'qituvchi", 1997, 243-bet.

tanga pullarini zarb qilardilar. Samarqand ixshidi saroyida ajdodlar ruxiga atab qurbonlik qilish uchun maxsus ibodatxona bino qilingan edi. Unda o'tkaziladigan har yilgi diniy marosimlarda viloyat hukmdorlarining barchasi qatnashardi. Yozma va arxeologik manbalardan ma'lum bo'lishicha, So'g'd hukmdorlari O'rta Osiyo va chet el davlatlari bilan elchilik aloqalarini olib borardilar. Masalan, Afrosiyobda ochilgan devoriy rasmlarda So'g'd hokimi Varxumanning Chag'oniyo, Choch va Xitoydan kelgan elchilarni qabul qilish marosimi tasvirlanadi.

So'g'dda ahli juda gavjum yashardi. So'g'diylar hunarmandchilik, savdo-sotiq dehqonchilik va bog'dorchilik, ayniqsa, uzumchilikda nihoyatda omilkor edilar. Darg'om, Nahrifay (Narpay), Harkon kabi yirik anhorlardan sug'orilgan So'g'd yerlari juda hosildor edi. Sug'orma dehqonchilik rivoj topgan bu diyorda g'alladan tashqari paxta va sholi ekilardi. Uning paxtasidan to'qilgan surp va bo'z matolaridan faqat So'g'diylargina emas, balki butun dasht aholisi kiyinardi. So'g'dning sharbatli uzumlaridan musallas tayyorlanardi, Samarqandning zarg'aldoq shaftolisi Xitoy poytaxtida «Samarqandning oltin shaftolisi» nomi bilan dong'i ketgan edi. Chorvachilikda mayda va yirik shoxli hayvonlar bilan bir qatorda ot, xachir, eshak va tuyalar boqilardi. Ayniqsa, So'g'dning xisori qo'ylari va tulporlari juda mashhur bo'lgan. Buxoro, Kesh va Maymurg' yaylovlaridan uyur-uyur yilqilar muttasil Xitoyga xaydab borilardi.

So'g'd shaharlari bu davrda hunarmandchilikning markaziga aylanadi. Ularda to'qimachilik, kulolchilik, konchilik, chilangarlik, temirchilik va zargarlik rivoj topadi. Temirdan xo'jalik asboblari va uy-ro'zg'or buyumlaridan tashqari, qurol-yarog'la, shamshir, xanjar, tabar, gurzi, sovut, qalqon va dubulg'alar yasaldirdi. Xatto 718 yilda so'g'diylar xadya tariqasida yuborgan dubulg'asidan nusxa olib, Xitoy qurolsozlari o'z

qo'shinlarini dubulg'alar bilan ta'minlaganlar. So'g'd tog'laridan oltin, jez, navshadil va yalama tuzlar kovlab olinardi. Shaharlarda hunarmandchilik taraqqiyoti o'z navbatida ichki va tashqi savdo aloqalarining kengayishiga imkon beradi. So'g'ddan Sharqiy Osiyo va Xitoyga qimmatbaho toshlar va ulardan yasalgan zebi-ziynatlardan tortib, turli-tuman matolar va dorivorlarga olib chiqilardi. O'sha zamonda So'g'dda bola besh yoshga to'lgach, unga o'qish-yozish va hisob o'rgatilar, balog'atga yetgach, savdo karvonlariga qo'shib tijorat safarlariga yuborardilar.

Ilk O'rta asr mahalliy davlatlaridan yana bir yirigi Tohariston edi. U Surxondaryo viloyati, Janubiy Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston hududlarida joylashgan edi. Bu mustaqil davlat Xuttalon, Chag'oniya, Termiz, Badaxshon, Qabodiyon, Vaxsh, Shuman, Shugnon, Vaxon va boshqalar kabi 27 tog'lik va tog' oldi viloyatlarini birlashtiradi. Ularning har birining uz hokimi, chokarlari bo'lardi. Mahalliy hukmdorlarning eng kuchli va nufuzlisi Xuttalon, Shuman, Kdbodiyon, Shug'non va Vaxon viloyatlarining hokimtari bo'lib, ular harbiy kuchlar zarur bo'lgan paytlarda 50 ming nafargacha chokar tuplay olardilar. Tohariston avval eftallar, so'ngra Turk hoqonligi tomonidan buisundiriladi. Manbalarda ta'rif etilishicha, VII—VIII asrlarda Tohariston ahlisining yarmi turklar bo'lgan. Uning bir qismi Xitoy manbatarida yuyechji deb atalgan toharlar, ikkinchisi turkiy kdbilalar va uchinchisi esa mahalliy baxtarlar edi. Podshoh zodagonlar va fuqarolari budda diniga siginganlar, qator ibodatxonalari va koxinlari bo'lgan. 25 harfli yozuvi kundalangaga chapdan ungga qarab bitilgan. Aholisi ip va ipak matolardan kiyingan. Tog'liklari pustin va jun chakmon kiyishgan. Erkaklari soch va soqollarini kirtishlab, ayollari esa uzun soch qo'yib yurishgan⁴.

⁴ Қаранг: Ватан тарихи. Т., “Ўқитувчи”, 1997, 249-бет.

Tohariston aholisining asosiy qismi utroq dehqonchilik bilan shug'ullanardi. Asosan g'alla va dukkakli ekinlar, qisman sholi va paxta ekilardi. Tog' oldi va tog'li joylarda esa bahorikorlik va uzumchilik rivoj toptan edi. Arxeologik topilmalar orasida pista, bodom, yongoq hamda o'rik, shaftoli, uzum va olcha danaklari, shuningdek, qovun va tarvuz urug'lari qayd etilgan. Shunga qaraganda, Toharistonda bog'dorchilik va polizchilik keng rivojlangan. Chorvachilikda mayda va yirik shoxli hayvonlardan tashqari ot, xachir, tuya va eshaklar boqilgan. Ilk o'rta asrlarda Toharistonda bo'lgan sayyoxlar uning ikki o'rkachli tuya va pastak otlarining uzoq masofalarga qatnashda nihoyatda chidamli ekanini maqtab yozganlar.

Toharistonda qadimdan konchilik taraqqiy topgan edi. U noyob tabiiy boyliklarga serob edi. Birgina Badaxshonning o'zidan la'l, lojuvard, aqiq kabi qimmatbaho toshlar va oltindan tortib temir, mis va qalaygacha kovlab olinardi. Serjilo toshlar va ma'danlar zargarlik, chilangarlik va temirchilikda ishlatilardi. Bu o'lkada ayniqsa qurolsozlik yuksalgan edi. Chokarlari kamon, gurzi, chuqmor, xanjar va shamshir bilan qurollangan edi. Ularning qo'lida ajoyib to'qima Balx qalqonlari bo'lardi. Toharistonda shishasozlik ham ancha rivoj topgan. Rangdor shishalardan surmadonlar, medalxon va munchoqlardan tashqari xilma-xil shisha buyumlar yasalgan. VIII asr boshlarida Toharistondan Xitoyga olib chiqilgan qizil va zumrad rangli shishalar xitoyliklarni lol qoldirgan.

Toharistonda ayniqsa to'qimachilik yuksak darajada edi. Ip, jun va ipaklardan rangli, guldor va yo'l-yo'l matolar to'qilardi. Qimmatbaho ipak va jun matolardan asosan zodagon dehqonlari hukmdorlar kiyinishardi.

Toharistonda juda ko'p mamlakatlarga elchilar yuborilib, ular bilan savdo aloqalari olib borilgan. Chetga ko'plab qimmatbaho toshlar chiqarilgan. Mashhur Badaxshon la'lisi esa jahon bozorlarida nihoyatda

yuqori baholanardi. Xuttalondan uyur-uyur zotdor yilqilar olib chiqilardi. Tohariston dori-darmonlari esa Xitoyda juda qadrlanar edi. Tohariston davlatlari viloyatlarida So'g'd tangalariga taqlidan suqilgan o'z nullari ichki savdo muomalasida yurgan. Toharistonning poytaxti qadimdan Balx shahri bo'lgan.

Xullas, Tohariston ilk o'rta asrlarning mustaqil mahalliy davlatlari qatorida tursa ham, lekin hali bir oz bo'lsada, markazlashmagan edi. Chunki uning har bir viloyati o'zining vorisiy sulolasiga mansub hokimlari tomonidan boshqarilardi. Ular alohida-alohida mayda davlatchalarni eslatardi, hatto ularning har biri o'zga yurtlarga elchilar yuborardi. Shunday qilib, Tohariston ilk o'rta asrlarda tashqil topgan mayda davlatchalar, ya'ni dehqon zodagonlar mulklari konfederatsiyasini tashqil etardi.

V — VII asrlarda O'rta Osiyoda, bir tomonidan, mulkdorlik munosabatlarining o'rnatilishi, ikkinchi tomondan, ko'chmanchi chorvadorlarning beto'xtov shiddat bilan kirib kelishi oqibatida yuzaga kelgan o'ta murakkab ham siyosiy, ham ijtimoiy vaziyat mamlakat obodonchiligi, xo'jalikning ravnaqi, shahar va qishloqlarning qiyofasi va aholisining turmush tarzi holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Avvalambor, chorvadorlarning siljishi davrida dashtliklarga tutashgan Xorazm, Toshkent, Buxoro va Qashqadaryo kabi vohalarning dehqonchilik maydonlari oyoq osti qilinib, ko'pgina shahar va qishloqlar vayron etildi. Xo'jalik rivojiga zarba berilib, savdo-sotiq ishlari tanazzulga yuz tutdi. Biroq avval Eftallar davlati, so'ngra Turk hoqonligi kabi ikki yirik davlatlar hukmronligi qaror topgach, yuzaga kelgan ma'lum darajadagi osoyishtalik davrlarida mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy hayoti yana tadrijiy taraqqiyot yo'liga tushib oldi.

Dehqonchilik xo'jaligida yer egaligi munosabatlarining jadallashuvi, ko'chmanchi chorvador qabilalar utroqlashuvining kuchayishi bilan ekin yerlarga bo'lgan ehtiyoj ortib bordi. Ziroatkor yerlar kengaydi. Sersuv, chuqur va sershoxa kanallar barpo etilib, dehqonchilik vohalarining suv ta'minoti tubdan yaxshilandi. Tog' oldi maydonlariga suv chiqarilib, yangi yerlar yetishtirildi. Shaharlar gavjumlashdi. Qishloklarda «ko'shk», «qasr», «qo'rg'on» va «qo'pg'on» nomlari bilan shuhrat toptan istehkomli turar joylar qad ko'tardi. Bunday mustahkam imoratlar xom g'isht va paxsadan ishlab chiqilgan baland tagkursi ustiga bino qilinardi. Qasr atrofi qalin va baland devor bilan o'ralgan bo'lib, kamondan o'q uzadigan «tirkish», ya'ni nishon tuynuklari, burchaklarida esa baland minoralari bo'lardi⁵.

Ko'shk, qasr va kurtonlar ko'proq yirik sug'orish shahoblari boshida, markaziy shaharlarning tevarak-atrofida hamda dehqonchilik vohalari chegaralari bo'ylab joylashgan edi. Mayda qo'rg'onchalar esa suv chiqarilib, obod etilgan vohalar bo'ylab katta-kichik qal'alar tevarak-atrofida qad ko'targan edi. Masalan, VI—VIII asrlarda qadimgi Xorazmning Burgutqal'a mavzeida yuzga yaqin ko'shk va qasrli qo'rg'onlar bo'lib, bular bir-biridan yuz-ikki yuz metr masofada joylashgan edi. Yozma manbalarda kayd etilishicha, Buxoro shahrinint faqat uchta sug'orish tarmoqlari bo'ylab to'rt mingta qasr qad ko'targan. Ko'shk va qasrli qo'rg'onlarda zodagon dehqonlar, qo'rg'onchalarda esa ziroatkor mehnatkash aholi istiqomat qilgan va dushmandan o'zini mudofaa etgan. Shubhasiz, ilk o'rta asrlarning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot taqozosi bilan qurilgan qasr, qo'rg'on va ko'shklar asosan tashkoy dushman xujumiga qarshi mudofaa inshooti, chokarlar harbiy garnizon to'planadigan joy, ma'muriy markaz hamda oziq-ovkat va qurol-yarog' saqlanadigan ombor vazifasini o'tagan.

⁵ Karim Shoniyoov. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. T., «Sharq», 2001, 245-bet.

Bu davrda sug'orma dehqonchilik maydonlarining kengayib, qishloq xo'jalik mahsulotlarining ortib borishi, hunarmandchilik buyum va asbob-uskunalariga bo'lgan extiyoj, savdo-sotiqning avj olishi, o'z navbatida, shaharlarning ravnaqiga, ayniqsa, ulardagi hunarmandchilik mahallalarining kengayishiga ta'sir etdi. Chunki VI—VII asrlarda garchi Movarounnahr shaharlarida savdo-sotiq ishlari ancha avj olishiga qaramasdan, ularning maydonlari unchalik katga emas edi. Masalan, VI—VII asrlarda Buxoro va Poykand shaharlarining maydoni 20—30 ga dan oshmagan. Bu davrda O'rta Osiyoda eng katta shaharlardan biri Samarqand edi. Uning umumiy maydoni 200 ga dan salgina oshiqroq edi⁶.

VI—VII asrlarda, bir tomondan, shahar aholisining ortib, uning gavjumlashuvi, ikkinchi tomondan, hunarmandchilik, savdo-sotiqning tobora kengayib borishi bilan shaharlar atrofi o'zlashtirilib, obod etiladi⁷. Natijada ayrim markaziy shaharlarning tashqi devorlariga tutashgan joylarda hunarmandchilik mavzelari paydo bo'ladi. Girdi mudofaa devori bilan o'ralmagan bu istexkomsiz mavzelar manbalarda «rabod» yoki «rabot», ya'ni tashqi shahar nomi bilan tilga olinadi. Keyinchalik rabodlar ham alohida devor bilan o'rab olinadi. Rabodlarda hunarmandchilik mahallalaridan tashqari savdogarlar, o'zga yurtlardan kelgan musofirlar uchun karvonsaroy, bozor, ibodatxona va daxmalar qad ko'tarishi bilan ilk o'rta asrlarda shahar uch qisimli bo'lib qoladi. Uning podshox qasri joylashgan qismi «kox» yoki «ark», ichki shahar «shahriston» deb yuritiladi. Shaharning uchala qismi ham alohida-alohida devorlar bilan o'rab olinadi. Ularning bir nechta darvozalari bo'lgan. Manbalarda ta'rif etilishicha, VII asrda Buxoro besh qismdan iborat bo'lib, u besh qator devorlar halqasi bilan o'ralgan. Shahar o'rtasidan oqib o'tgan anhor xandaq vazifasini bajargan. Shuningdek, Poykand shahrining ichki va tashqi ikki

⁶ Karim Shoniyozov. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. T., "Sharq", 2001, 247-bet.

⁷ O'sha joyda.

shahristoni bo'lib, rabodida ko'plab karvonsaroylar va otashparastlarning gumbazli go'rxonalari joylashgan.

Ilk feodal mahalliy davlatlardan bir nechtasi Tohariston viloyatida tashqil topgan edi. U Surxondaryo viloyati, Janubiy Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston hududlarida joylashgan edi. Bu mustaqil davlatlar 27 tog' va tog' oldi viloyatlarini o'z hududida birlashtirardi. Ularning har birini o'z hokimi va chokarlari bo'lardi. Mahalliy hukmdorlarning eng kuchli va nufuzlisi Xuttalon, Shuman, Qabodiyon, Shug'non va Vaxon viloyatlarining hokimlari bo'lib, ular harbiy kuchlar zarur bo'lgan paytlarda 50 minggacha chokar to'play olardilar. Tohariston avval eftallar, so'ngra Turk hoqonligi tomonidan bo'ysundiriladi. Manbalarda ta'rif etilishicha, VII-VIII asrlarda Tohariston aholisining yarmi mahalliy, yarmi esa turklar bo'lgan. Aholisi budda diniga sig'ingan, qator ibodatxonalari va kohinlari bo'lgan. 25 harfli yozuvi ko'ndalangiga chapdan o'ngga qarab bitilgan. Aholisi ip va ipak matolardan kiyingan. Tog'liklari po'stin va jun chakmon kiyishgan. Erkaklari soch va soqollarini qirtishlab, ayollari esa uzun soch qo'yib yurishgan.

Tohariston aholisining asosiy qismi o'troq dehqonchilik bilan shug'ullanardi. Chorvachilikda mayda va yirik shohli hayvonlardan tashqari ot, xachir, tuya va eshaklar boqilgan. Ilk o'rta asrlarda Toharistonda bo'lgan sayyohlar uning ikki o'rkachli tuya va pastak otlarining uzoq masofalarga qatnashda nihoyatda chidamli ekanini maqtab yozganlar.

Toharistonda qadimdan konchilik taraqqiy topgan. Bu o'lkada noyob tabiiy boyliklar serob edi. Ayniqsa, qurolsozlik yuksalgan edi. Chokarlari kamon, gurzi, cho'qmor, xanjar va shamshir bilan qurollangan edi. Ularning ajoyib to'qima Balx sovutlari bo'lardi. Toharistonda shishasozlik ham ancha rivoj topgan edi. Viloyatda ayniqsa to'qimachilik yuksak

darajada edi. Tohariston juda ko'p mamlakatlarga elchilar yuborib, ular bilan savdo aloqalari olib borgan. Bu ilk o'rta asr feodal davlat viloyatlarida So'g'd tangalariga taqlid etib so'qilgan o'z chaqa tangalari ichki savdo muomalasida yurgan. Toharistonning markazi qadimdan Balx shahri bo'lgan.

Xullas, Toharistonning ilk o'rta asr mahalliy feodal davlatlari hali yagona davlatga birlashib markazlashmagan edi.

1.2. So'g'd va Tohariston voha davlatlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.

Ilk O'rta asrlarda Buyuk Ipak yo'li orqali olib borilgan keng ko'lamdagi xalqaro savdo Turk hoqonligi, Xitoy, Hindiston, Eron va Vizantiya o'rtasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni kengaytirdi. Utroq dehqonchilik vohalari bilan dasht xalqlari madaniyatlarining o'zaro ta'sirini kuchaytirdi. O'rta Osiyo xalqlari jahnon tarixi jarayoniga tortilib, bu diyorda ilk o'rta asrning o'ziga xos serqirra va nihoyatda boy madaniyati shakllandi va rivoj topdi. Bu yuksak madaniyatning serjilo qirralari, ayniqsa, VI—VIII asrlarning moddiy madaniyat obidalari, diniy e'tiqodlariyu tasviriy san'at namunalarida o'z aksini topdi. Mahalliy hayotda sodir bo'lgan bunday uzgarishlar, ayniqsa, binokorlik, me'morchilik va tasviriy san'atning ayrim jabhalarida ko'proq namoyon bo'ldi⁸.

IV asrning ikkinchi yarmi va V asrda mamlakatning ichki va tashqi hayotida sodir bo'lgan keskinlik, ayniqsa, binokorlikka kuchli ta'sir ko'rsatdi. Samarqand, Buxoro, Naxshab va Toshkent kabi dehqonchilik vohalarida baland tagkursi ustiga bino qilingan ko'plab istehkomli qasrlar va zodagon dehqon qo'rg'onlari qad ko'tardi. Istexkomlarning to'rt burchagi baland burjlar bilan mustahkamlanib, devoru mulalari, bir necha qator kamondan o'q uzgich nishon tuynuklari bilan ta'minlangan.

⁸ O'.Mavlonov. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari. T., "Akademiya", 2008, 245-bet.

Markazida baland arkli, girdi ikki yoki uch qator qalin mudofaa devorlar bilan o'ralgan zodagon mulkdorlarning qo'rg'onlari ilk o'rta asrlarning o'ziga xos me'morchiligi namunalaridan bo'lib, Naxshab vohasidagi Zahki Moron qal'asi, Buxorodagi Shahri Vayron va Xorazmdagi Alfir qal'alari shular jumlasidandir.

Bu davr binokorligi va me'morchiligida, ayniqsa, qasrlar alohida o'rin tutgan. Ularning ayrimlari xatto ikki qavatli bo'lib, yuqorisiga maxsus ko'tarma — pandus orqali chiqilgan. Qasr ichida shipi tekis, gumbazsimon va ravoqsimon yopilgan bir qancha xonalar bo'lgan. Ko'pincha uning markaziy qismida girdi yo'laksimon uzun xonalar bilan o'ralgan miyonsaroy — mexmonxona yoki ibodatxona bo'lib, xona saxnida devor bo'ylab kenggina supalar, markazida esa otashdon bino qilingan. V asr oxiridan boshlab binokorlikda an'anaviy hom g'isht va paxsa bilan bir qatorda pishiq g'isht ham ishlatila boshlagan. Bu davrda pishiq g'ishtdan saroy va ibodatxonalarning sahnini to'shashda foydalanilgan.

Ilk o'rta asr me'morchiligining qurilish g'oyalari, muxandislik yechimlari va me'moriy uslubi, naqshlari Xorazm, So'g'd, Tohariston, Farg'ona va Chochning shahar va qal'alari, mulkdor dehqonlar qo'rg'onlariyu ibodatxonalar, kushklariyu mudofaa inshootlarining tarxu istexkomlari, toku ravoqlari, ichki naqshlariyu tasviriy san'at obidalarida namoyon bo'ladi⁹.

VI asrlarda ham saroy va ibodatxona devorlarini turli mazmundagi rangdor tasvirlar bilan bezash hamon odatiy tusda edi. Bunday tasviriy san'atning nodir namunalaridan biri Bolaliktepa qasri devorlarida qayd etilib o'rganildi. Kattagina xonaning devorlarida rangli bo'yoqlar bilan qandaydir izdahomda — gilamchalar ustida juft-juft bo'lib tiz cho'kib

⁹ A.Asqarov. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. T., "Universitet", 2007, 153-bet.

o'tirgan erkak va ayollar tasvirlangan. Erkaklarning ustida uchburchak shaklida keng qaytarma yoqali va hoshiyali uzun kamzul, oyog'ida mahsi, belida ingichka kamarga o'tkazilgan qayrilma uchli xanjar osilgan. Birida vaza, ikkinchisida Tyg'po tutgan qo'llarining jimjilogiga bittadan ikkita yirik ko'zli uzuk taqilgan. O'ng qo'lida qadah, so'lida ko'zgu tutgan ayollarning kiyim-kechaklari nihoyatda bashang. Ichki libos ustidan hoshiyali qaytarma yoqali hamda uqali uzun va keng guldor yopinchiq — kabo yelkaga tashlangan. Quloqlarida Buxoroning yakkadur ziragi, jimjiloqlariga esa ko'zli uzuk taqilgan. Xullas, Bolaliktepa qasri devorlarida tasvirlangan ayollarning tashqi kiyofasi VI asrda eftallar hukmdori huzurida bo'lgan budda kohinini hayratga solgan saroy zodagon ayollarini eslatadi. Uning ta'riflashicha, o'sha vaqtlarda eftal malikalari juda qimmatbaho matodan tiqilgan, orqa etagi uch quloch va undan ham uzunroq bo'lgan serbezak ko'ylak kiyar, uning etagini maxsus joriyalar ko'tarib yurganlar¹⁰.

Bu davrda qo'shni mamlakatlar: Xitoy, Hindiston va Eron bilan iqtisodiy va madaniy aloqalar kengayib boradi. V asrda O'rta Osiyolik shishagarlar Xitoy hunarmandlariga rangli shisha va shisha buyumlap yasashni o'rgatganlar. O'rta Osiyo shishasi rangdorligi, yaltiroqligi va tiniqligi jihatidan Vizantiya shishasidan ustun turgan. Xitoy imperatorlari o'z saroylarini bezashda O'rta Osiyodan keltirilgan rangli shishadan foydalanganlar. Shunday qilib, eftallar davrida O'rta Osiyo xalqining madaniy an'analari qo'shni mamlakatlar, xususan, Hindiston va Eron sasoniylarining tasviriy usullari bilan omuxtalashib, ilk O'rta asrlar madaniyatining shakllanishida mustahkam poydevorga aylangan.

Georafik jihatdan bir-biridan uzoqda joylashgan va har xil diniy tasavvur va an'analarga ega bo'lgan viloyatlarning aholisi turli tillarda

¹⁰ Karim Shoniyozov. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. T., "Sharq", 2001, 254-bet.

so'zlashgan. Chorvador aholi o'rtasida shubhasiz turkiy til muhiti hukmron edi. O'troq aholining kattagina qismida So'g'diycha suzlashuvi va So'g'd tilining keng muomalada bo'lishi kuzatiladi. Bu davrda sura; tili va yozuvi xalqaro savdo tili sifatida Yettisuv va Farg'ona orqali Sharqiy Turkistonga kirib, Xitoy hududlarigacha yetib boradi.

Bu davrda So'g'd va Tohariston aholisining alohida-alohida yozuvlari bor edi. Ulardan So'g'd va Tohariston yozuvlari qadimgi oromiy yozuvi asosida maydonga kelgan edi. Tohariston yozuvining asosi esa o'z navbatida So'g'd va Xorazm yozuvlaridan olingan edi. Ilk O'rta asrlarda Markaziy Osiyo va Xitoyda qog'oz ishlab chiqarish garchi ancha yo'lga kuyilgan bo'lsa ham xat, xujjat va ayrim axborotlar kabi maktubotlar asosan charm, yog'och, suyak, sopolga va kamdan-kam qog'ozga bitilardi. Chunki qog'ozning bahosi nihoyatda baland edi. Ayrim bitiklar esa xatto podsho saroylari va ibodatxona devorlariga ham yozilardi. Ular orasida elchilik maktublari, xo'jalik kirim va chiqimlari, yuridik shartnomalar, astronomik xujjat, tarixiy yodnomalar hamda diniy aqidalar bitilgan nodir qo'lyozma topilmalar bor edi. Bizning zamonimizgacha saqlanib qolgan So'g'd yozuvlari orasida Panjikent yaqinida Qal'ai Murdan, Sharqiy Turkistonda Turfan shahri yaqinida topilib o'rganilgan xujjatlar hamda Samarqandning qadimiy harobasi Afrosiyobda qayd etilgan devoriy yozuvlar, ayniqsa, betakrordir.

VII va VIII asr boshlaridagi mansub xujjatlarda So'g'dning siyosiy tarixi, hukuq va qonunlari, iqtisodiy va diniy e'tiqodlari hususida muhim ma'lumotlar keltiriladi. Masalan, Qal'ai Myg' xujjatlari orasida Uttegin nomli yigit bilan Durdruncha ismli ayol o'rtasida tuzilgan nikoh guvohnomasi qayd etilgan. Bu xujjat asosida tuzilgan bitimga binoan Dug'dg'unchaning ixtiyori bilan qonunga muvofiq Uttegin sevimli va ardoqli xotin sifatida uni qabul qilib, oziq-ovkat, kiyim-kechak, zebu ziynat

bilan ta'minlamog'i va xurmat-izzat qilmog'i lozim edi. O'z o'rnida Durdruncha ham Utteginni sevimli va ardoqli er sifatida tutmog'i, uning baxtli turmushi xaqida qayg'urmog'i va buyruqlarini qonun kabi tinglamog'i darkor edi. Shuningdek, xujjatda eru xotinlardan biri ikkinchisining roziligisiz nikoh bitimini buzmaslik shartlari bayon etiladi. Jumladan, agar Uttegin Dugdrunchaning ijozatisiz uning ustiga uylansa, u vaqtda Durdrunchaga 30 dinoriy sof kumush draxma tovon to'lashi va uni na xotin, na xizmatkor sifatida tutib turmay, ozod etishi shart bo'lgan.

Yana boshqa xujjat Utteginning Dugdruncha qarindoshlariga bergan vasiqasi bo'lib, unda kuyovning quyidagi shartlarni o'z zimmasiga olgani bayon etiladi. Ushbu vasiqaga binoan «Chata bugundan boshlab kelajakda, to abad mening xotanim bo'lib qoladi.... Sening va Mitra (tangri)ning ishtirokida majburiyat olaman: uni sotmalman, qarz hisobiga cho'rilikka bermayman, biror kimsa ximoyasiga bermayman. Bordi-yu, uni mendan kimdir tortib olsa, xo'rlasa, uni ziyon-zaxmatsiz (sizlarga) jo'nataman. Chata o'zi ketishni xoxlasa ham ... shu tariqa ziyon-zaxmatsiz jo'nataman va cog'-salomat topshiraman. Agar... topshirmasam, u holda... toza sifatli 100 dinoriy kumush draxma to'layman»... Bu ikki xujjatda keltirilgan ma'lumot shuni aniqlab beradiki, VII—VIII asrlarda so'g'd jamoasida inson (ayniqsa, xotin-qizlarning) xah-xukuqlari va axloq qonun-qoidalari, xususan, nikoxlanayotgan shaxslarning o'zaro mulkiy munosabatlari, kuyovning kelin oldidagi burchi va majburiyati o'z zamonasi uchun juda adolatli ravishda belgilab qo'yilgan ekan.

So'g'd davlat boshqaruv tarkibi, elchilik aloqalari, xalqaro savdosi va murakkab xo'jalik taraqqiyoti shubhasiz aholining savodxonligini talab etardi. Shu boisdan, So'g'dda savodxonlikka intilish juda ham kuchli bo'lgan. Xitoy manbalarining guvoxlik berishicha, So'g'dda besh yoshga to'lgach o'g'il bola yozuv va hisobga o'rgatilar, so'ngra ular 20 yoshga

kirganlarida savdo ishlarini o'rganish uchun o'zga mamlakatlarga jo'natilar edi.

Panjikentda topilgan so'g'd alifbosi bitilgan mashq taxtasi, Marvdan topilgan sopolga bitilgan kotib mashqlari matniga qaraganda, bu davrda So'g'dda savod o'rgatish va kotiblik san'ati maktablari bo'lgan. Samarqand xusnixat maktabi inshosining yuksak namunalari sifatida Qal'ai Murdan topilgan ayrim xujjatlar va ularda tilga olingan Ramtish Vchashfagn, Vachenok va Siyamich Tishich kabi ayrim kotiblarning nomlari buning yorqin dalilidir. Demak, VII—VIII asrlarda So'g'dda savodxonlik yuksak darajada bo'lib, yozuv keng tarqalgan edi. So'g'd yozuvining keng tarqalgan Samarqand usulidan tashqari, Xorazm, Buxoro hamda qaroshtiy yozuvlari ham bor edi. Bularning ayrim namunalari Qoratepa, Zangtepa, Kofirqal'a va Afrosiyob harobalaridan topilgan.

Ma'lumki, O'rta Osiyo xalqlarining savodli bo'lishida va o'z yozuvlarini ijod etishlarida So'g'd yozuvi muhim rol uynagan. So'g'd xati asosida uyg'ur va turk yozuvlari shakllangan. Uyg'ur yozuvidan esa o'z navbatida keyinchalik mug'ul va manjur xatlari paydo bo'ladi. Shubhasiz, bu tabiiy voqelik edi. Chunki, VII—VIII asrlarda O'rta Osiyo, Yettisuv va Sharqni Turkiston viloyatlarida So'g'd tilining amaliy ko'lami juda keng edi. Bunday joylarda ahli so'g'd va turk tillarida bemalol so'zlashgan. Ayniqsa, shaharlarda ikki tillilik rasmiy holat bo'lgan. Hoqonlikning savodli zodagonlari orasida so'g'd tilining bilimdonlari ham oz bo'lmagan¹¹. So'g'diylarning kattagina guruhi doimo turk hoqonlarining qarorgohida yashagan. Ularning ayrimlari saroy a'yonlari va ma'murlari qatorida o'rin egallab, maslahatchi, elchi, xat va savodga o'rgatuvchi ustoz vazifasini bajarganlar.

¹¹ O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. T., "Sharq", 2001, 258-bet.

VII asrning birinchi yarmida so'g'd va uygur yozuvlarining puxta bilimdonlari tomonidan runiy, ya'ni kuk turk xati ijod etiladi. Garchi bu yozuvning asosi So'g'd xati orqali oromiy yozuviga borib taqalsada, ammo u turk tilining fonetik xususiyatlarini aniq bera oladigan mutlaqo yangi o'ziga xos yozuv edi. Turklarning bu yangi yozuvi biri ikkinchisiga tutashib ketadigan 38—40 harfdan iborat edi. U tosh va yog'ochlarga o'yib yozishda nihoyatda qulay edi. Qadimgi Ko'k turk bitiklari — runiy yozuvi yodgorliklari Oltoy va Sharqiy Turkistondan (Kultegin va Bilga Hoqon bitiklari) tashqari, Yettisuv, Farg'ona va Zarafshon vodiylaridan topilib o'rganilgan. Ular qabr toshlari, sopol va metall buyumlar hamda tanga pullarga bitilgan. Ular orasida yuqori Zarafshonda — Qal'ai Mug'da topilgan va charmga bitilgan qadimgi turk tilidagi hujjat ayniqsa bebaho edi. Shunday qilib, ilk o'rta asrlarda turk dunyosi So'g'diylar tufayli Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari aholisining qadimiy yuksak madaniyati yutuqlari bilan tanishdi va ulardan bahramand bo'ldi.

1.3. So'g'd va Tohariston aholisining diniy e'tiqodi va madaniyati.

Ma'lumki, avval eftallar, so'ngra Turk hoqonligi siyosiy jihatdan juda ko'p xalqlarni birlashtirgani sababli turli diniy e'tiqoddagi ahli yonma-yon yashagan. V—VIII asrlarda O'rta Osiyoda zardo'shtiy, budda, nasroniy (hristianlik), moniy va kam (shomon) kabi bir nechta dinlar mavjud bo'lgan. Ayrim viloyatlarda yaxudiy jamoalari hamda Noxid, Mitra va Siyovush kabi mahalliy ma'budalarga ham sig'inuvchilar istiqomat qilgan. Navruz kunlari Buxoro otashparastlari Siyovush qabri ustida xo'roz bug'izlab qurbonlik qilardilar. Mamlakatda ko'p dinlilik e'tiqodlari rasm bo'lsada, ammo ahlining ko'pchiligi olovga topinuvchi ma'jusiyy edi. Otashparastlik Xorazm, So'g'd va Choch viloyatlarida, ayniqsa, keng tarqalgan edi. Katta-kichik shaharlarda ma'jusiylarning ibodatxonalari

bo'lardi. Ular «vagn» deb, kohinlari esa «vagnpat» deb yuritilardi. Muqaddas otash «azarxurra» deb atalardi. U maxsus olovxona — «otashkada»larda kechayu kunduz muttasil yonib turardi. Otashkada mutavallilari o'ta zohid dindorlardan bo'lib, ular «atrabon» deb yuritilardi. Oddiy mehnatkash ahlidan tortib zodagonu podshohlargacha atrabonlarga hadyalar keltirib, ular orqali muqaddas olovdan madad so'rab iltijo etilardi.

Zardo'shtiy dinida yaratuvchilik qudratiga ega tangri — Axuramazda bo'lib, u olam va odamzodning, tabiat va jamiyatdagi barcha hodisalarning yaratuvchisi sifatida targ'ib qilingan. Axuramazda yorug'lik, farovonlik, sixat-salomatlik, tinchlik va boshqa barcha ezgu hodisalar tangrisi sifatida zulmat, ochlik, o'lim, urush, yomon (gunoh) ishlar, razil niyatlar va kaboxatliklarning homiysi Ahiman bilan doim uzluksiz kurash olib borgan.

Zardo'shtiylik e'tiqodi bo'yicha olov nihoyatda muqaddas hisoblangan. Quyosh yorug'lik manbai va otash uning bir qismi hisoblangan. Quyosh olamga hayot bag'ishlaydi. Uning nuri bilan barcha jonzod uyg'onadi va yashnaydi. Qadimiy tangalarga suqilgan ma'budalar tasviri va sopol haykalchalar taqlidiga qaraganda Axuramazdadan tashqari, zardo'shtiylarning Mitra, Farna, Nana yoki Noxid (Anaxita), Mirrix, Xubbi va mahalliy ezgulik muakkillari ham bo'lgan. Mitra — quyosh va yorug'lik muakkili, jangovar yigit siymosida tasvirlanadi. Farna, mahalliy aholi Xumo, ba'zan Ankr nomi bilan yuritgan — baxt va tole homiysi, nihoyatda chiroyli, boshi ayol, tanasi qush qiyofasida tasavvur etilgan. Nana — Noxid farovonlik homiysi, bir qo'lida anor yoki olma tutgan guzal ayol kiyofasida tasvirlanadi. Mirrix — urush va g'alaba muakkili, harbiylar madadkori, qurollangan jangchi taqlidida tasavvur etilgan. Xubbi — suv muakkili, qayiqchilar va miroblar xomiysi, zabardast yigit tusida tasvirlanadi¹².

¹² А.Аскарлов. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Т., “Университет”, 2007, 143-бет.205-бет.

Zardo'shtiyar e'tiqodiga ko'ra, koinot olov, tuproq, suv, xavo kabi to'rt unsurdan tarkib topgan. Ular muqaddas hisoblangan va ularga nisbatan e'tiqod nihoyatda kuchli bo'lgan. Ularga iflos va badbuy narsalar tashlash kat'iy taqiqlangan. Xatto marxumlar jasadini yerga kumish, suvga tashlash, yoqish yoki ko'katlar ustida qoldirish qat'iyan man etilgan, chunki ular murdor hisoblangan. Marxum yashagan xonadonda bir necha kun o't yoqilmagan, ovqat pishirilmagan. Murdalar toshloq tepaliklar yoki shahardan tashqarida bino qilingan maxsus baland daxmalarning ustida qoldirilgan. Qush-kuzg'unlar va yirtqichlar ularning etini yeb bitirgach, suyaklari quyoshda toblanib sarg'aygach, ularni jamlab qopqoqli sopol ostadon (tobutcha)larga solib qo'yilgan. Barcha motam marosimlari tugagach, marxum ustuxonlari solingan ostadon (assuariy) maxsus xilxona — «naus»ga kiritilib, supa ustiga terib qo'yilgan, shu bilan dafn marosimi tugagach, marxumlar suyaklarini ostadonlarga solib, nauslarda saqlash odati So'g'd, Choch va Xorazm viloyatlarida keng rasm bo'lgan. Zardo'shtiy daxmalarning vayronalari Qarshi shahri yaqinida joylashgan Yerqo'rg'on shahar harobasidan hamda Buxoro va Poykand shahri yaqinidan topilib o'rganilgan. Buxoro daxmasining qanday inshoot ekanini anglatuvchi qadimiy atama hatto hozirgacha ayrim yodgorliklar nomida saqlanib qolgan. Bu yodgorlik «Tali murdapartov», ya'ni murdalar tashlanadigan tepa deb yuritiladi. Qorako'l yaqiniga joylashgan qadimiy Poykand shahri tevaragidan esa 50 dan oshiq «naus»lar qazib o'rganildi.

Bu davrda aholi o'rtasida budda dinining ham e'tiqodiy mavqei past emas edi, garchi u So'g'dda deyarli tarqalmagan bo'lsa-da, ammo O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarida, xususan, Toharistonda, Farg'ona va Yettisuvda xmda Sharqiy Turkistonda, ayniqsa, shahar aholisi o'rtasida keng yoyilgan edi. VI asr oxiri — VII asr boshlarida ayrim G'arbiy turk

hoqonlari budda dinini qabul etib, butxonalarning kurilishida homiylik qiladilar. VII asrda Balx shahrida yuzta, Termizda o'ntacha (ularning qoldiqlari Qoratepa, Dalvarzintepa va Ajinatepalardan topib tekshirilgan) va Qobodiyonda uchta budda monastirlari bor edi. Ularning har birida ikkitadan to 50 nafargacha rohib (monax)lari bo'lgan. Ilk o'rta asrlarga mansub ikkita budda ibodatxonalarining qoldiqlari Farg'ona vodiysidaga qadimgi Quva shahri harobalaridan qazib urganildi. Ulardan buddaning loydan yasalgan rang-barang xaykali va xaykalchalari topildi. Termiz yaqinida Zangtepa yodgorliklaridan VI—VIII asrlarga mansub qayin po'stlariga bitilgan buddaviy qo'lyozma matnlari qayd etildi.

Yozma manbalardan ma'lum bo'lishicha, O'rta Osiyo viloyatlarida bu davrda nasoro (hristian) dinining nestorian ta'limotiga e'tiqod qiluvchi jamoalarning soni ham oz emas edi. Samarqand viloyatining Urgut tumani So'g'ddagina emas, balki butun O'rta Osiyoda nasroniy targ'ibotlarning markazlaridan hisoblanardi. Aftidan, nasoro dini So'g'dga V—VI asrlarda kirib kelgan. VI asr boshlarida Samarqandda yepiskop, VIII asrda esa mitropolit kabi nasoro dinining oliy unvonidagi ruhoniylar nasroniy jamoalarga rahnamolik qilganlar. VII—IX asrlarda Buxoro, Samarqand va Yettisuvda yashagan nasroniylar xaqida arabnavis mualliflar ham qayd etadilar. Bu viloyatlarda nasroniy jamoalarning mavjudligi haqida suriya, surl va turk tillarida bitilgan nasroniy matnlar va ayrim arxeologik topilmalar ham guvohlik bermoqda. Masalan, Urgut yaqinidagi Qushtepa yodgorligidan topilgan xum parchasida hristianlikning asosiy udumlaridan biri — cho'qintirish marosimi tasvir etilgan. Unda chap qo'lida kitob (injil), o'ng qo'lida esa xoch tutgan uzun kiyimdagi roxib xochni boshyalang tiz cho'kib turgan kishining boshi uzra tutib turibdi.

Nasoro dini Toharistonning turkiy aholisi orasida ham keng tarqalgan. Nasroniy ta'limoti Sultan Buyuk Ipak yo'lining shimoliy tirsagi

bo'ylab avval so'g'diylarning Yettisuvdagi kasabalariga, so'ngra Turfan va Qoshg'ap vohalariga kirib borgan edi. Suriya va forsiy tillarida yozilgan nasroniy matnlarini so'g'd tiliga tarjima qilishda va bu ta'limotni viloyatlarda targ'ib etishda so'g'd xatiblari va tarjimonlarining hizmati katta bo'lgan¹³.

Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo xalqlarining mafkuraviy hayotida moniy dini ham ancha chuqur ildiz otgan edi. Bu din zardo'shtiy, nasroniy va budda dinlarining asosida yuzaga kelgan. Bu dinga asos solgan Moniy tarixiy shaxs bo'lib, u Bobilda (216—274) dunyoga kelgan. U o'z targ'ibotini Midiya va Forsda boshlagan. Birok, Eronda uning ta'limoti otashparastlikning ashaddiy ruhoniylari tomonidan qaqshatkich zarbaga uchragan. Keyinchalik bu mazxab tarafdorlari O'rta Osiyoning janubiy viloyatlari va Sharqiy Turkistonda qaror topadi. Moniy ta'limoti bo'yicha olamning ibtidosi ikki qarama-qarshi yaratuvchi — yorug'lik va ezgulik hamda zulmat va yovuzlikdan iborat bo'lib, kamolotga yetishish yo'lida inson zulmatga qarshi kurashda yordulikka ko'maklashuvi lozim. Bu yo'ldan borgan taqodir to'g'ridan-to'g'ri yorug'lik jannatiga kirib borishi targ'ib etiladi. Ibodat, ro'za va sadakqa moniy dinining arqoni hisoblangan. Ibodat Quyosh va Oyga bag'ishlanib, yakshanba va iyd kunlari ro'za tutilgan. Sadaqa berish esa taqvodirlarning asosiy burchi hisoblangan. Moniy ta'limotida savdo-sotiq rag'batlantirilib, sudxurlikka ijozat beriladi. Shu boisdan bu ta'limotni dastavval shaharlarning savdo axli va xalqaro tijorat bilan shug'ullanuvchi zodagon hamda mahalliy hukmdorlar qabul qiladilar. Bu mazxabning diniy kitoblari qadimgi forsiy tilidan So'g'd, tohar, turk va xitoy tillariga tarjima qolinadi¹⁴.

VI—VIII asrlarda moniy dini Mypg'ob vohasi orqali Tohariston, So'g'd, Sharqay Turkiston va Xitoyga yoyiladi. VIII asrdan bu ta'limot

¹³ O'.Mavlonov. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari. T., "Akademiya", 2008, 256-bet.

¹⁴ Qarang: O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. 265-bet.

Xitoy imperatori tomonidan «Fapbiy mulk»larning mahalliy dini, hoqon tomonidan esa Uyg'ur hoqonligining davlat dini deb e'lon qilinadi. Xitoy hududida So'g'diylarga ibodatxonalar qurish va moniy dinini targ'ib qilishga ijozat beriladi. Moniy ta'limotida tasviriy san'atga va musiqaga katta ahamiyat beriladi. Diniy targ'ibot va marosimlarda, ayniqsa, tasviriy san'atdan keng foydalanilgan. Odatda, ibodatxonalar devorlari, diniy kitob sahifalari, matolar moniy, ma'jusiylar xudolari, mansabdorlar, diniy bayram manzaralari va aqidalar belgilari bilan tasvirlanardi. Shubhasiz, moniy ta'limoti O'rta Osiyoda tasviriy san'atning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

VII—VIII asrlarda O'rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va me'morchilik bilan bir qatorda tasviriy san'atning rassomlik va xaykaltaroshlik kabi bir qator tarmoqlari ravnaq topadi. Ularning ayrim namunalari ilk o'rta asrlarda bino qilingan qasr va saroylarni bezagan devoriy suratlar va ganchkori naqshlarda, budda ibodatxonalariga o'rnatilgan haykallarda, e'tiqod ramzi sifatida sopoldan yasalgan ma'buda xaykallariyu yog'ochdan yunalgan sanamlarda hamda chaqa-tangalar sirtiga suqilgan siymo va ramziy belgilarda namoyon bo'ladi. Shubhasiz, ularda ilk o'rta asr davrida sodir bo'lgan ijtimoiy o'zgarishlar, iqtisodiy siljishlar va siyosiy munosabatlar, ma'lum darajada, o'z in'ikosini toptan. Surxon vohasida Bolaliktepa va Qoratepadan, Zarafshon vodiysida Panjikent, Varaxshava Afrosiyob, Farg'ona vodiysida Quva harobalaridan hamda boshqa yodgorliklardan topib o'rganilgan devoriy suratlar, haykallar va ganchkori naqshlar o'sha zamon yuksak san'atining nodir asarlaridan hisoblanadi. Mazmuni jihatidan ular nihoyatda boy, tasviriy jilosi jihatidan esa rango-rangdir. Ularda ilk o'rta asrlar davrining o'ta murakkab siyosiy munosabatlari tazyiqi ostida yuzaga kelgan ma'naviy va maishiy hayotning omuxtalashib ketgan sermazmun va beqiyos manzaralari tasvirlanadi.

Masalan, Bolaliktepa devoriy suratlarida qo'llarida qadax tutib, xashamatli zarrin liboslarda juft-juft bo'lib purviqor o'tirgan erkaklaru ayollarning bazmi jamshidi tasvir etilgan bo'lsa, Varaxsha saroyida oq fil ustiga mingan filbon va paxlavonlarning old va orqadan chovut solayotgan arslon va qanotli grifonlar bilan olishuvi yoki suyanchiqlari qanotli tuya shaklida ishlangan oltin taxt ustida o'tirgan hukmdor hamda otashdonda alangalanib turgan muqaddas olovni tiz cho'kib tavob qilayotgan ziyoratchilar namoyish qilingan.

Panjikent shahar harobalaridan 60 dan ortiq xonalardan topilgan devoriy tasvirlar esa mazmun jihatdan nihoyatda boydir. Rasmlar orasida harbiy yurishlar, So'g'diylarning qadimiy eposlari, dexqonchilik yoki diniy marosimlarga bag'ishlangan turli-tuman mazmundagi suratlarining maroq bilan tomosha qilish mumkin. Qariyb 15 metrga cho'zilgan manzarada turiq otliq suvori boshliq chokarlarning yurishi, ot choptirib dushmanga xujumi, suvorining ajdarxo va otliq dushman bilan yakkama-yakka olishuvi, chokarlarning devlar to'dasi bilan kurashuvi va nihoyat qulagan ajdarhoni yanchib, g'alaba bilan o'z chokarlarini boshlab qaytayotgan suvorining qahramonliklari tasvir etiladi. Bu ajoyib san'at asarini ochib o'rgangan arxeolog olim A.M.Belenitskiy uni Abulqosim Firdavsiyning mashhur «Shoxnoma» asarida bayon etilgan Rustam haqidagi dostonning X asr mualliflaridan rosa uch asr muqaddam So'g'diy musavvirlari tomonidan mo'yqalam bilan chizilgan tasviriyl manzarasi deb talqin qiladi. Panjikent devoriy suratlari orasida yozgi xosilni yig'ib, uning taqsimotiga bag'ishlangan manzara, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Kattagina g'alla xirmoni, xirmon tepasida qo'lida ikki pallali osma tarozi tutgan amlakdor donni o'lchab taqsimlamoqda Donni qoplayotganlar hamda to'lg'izilgan qanorni eshakka ortib jo'natish taraddudida turgan yengi va pochalari shimarig'lik yalangoyoq keksa dehqon va o'spirin tasvirlangan. Bu suratlar

vositasida Ballami xirmon qilib, uni taqsimlash bilan bog'liq odatiy qishloq hayoti namoyish etilgan bo'lsa, ikkinchi bir rasmda Siyovush o'limi bilan bog'liq aza marosimi tasvirlanadi. Unda tobut atrofida sochlarini yoyib girya qilayotgan ayollarning surati chizilgan.

Afrosiyobda kovlab ochilgan devoriy suratlarning mazmuni yanada o'zgacha. Unda qandaydir tantanali izdaham tasvir etiladi. Oldinda oq fil ustida taxtiravonda malika. Fil saʼrisiga mingashgan joriya taxtiravonni ushlab bormoqda. Fil ortidan qorabayir, turiq va saman mingan uchta ayol, ulardan birinchisining qo'liga suvdcha «malikaning yangasi» degan so'zlar yozilgan. Ayollarni tuya mingan ikki nafar qurollangan erkak kuzatib bormokda. Yuqoriroqda ot yetaklagan kishi hamda to'rtta oqdush xaydab borayotgan o'spirinning surati chizilgan. Ularning og'iz-burunlari oq mato bilan bog'langan. Devorning markazida, boshqa rasmlardan ikki barobar kattalashtirib chizilgan suvori, u otliqlar qurshovida. Xonaning g'arbiy devorida shohona liboslarda qimmatbaho tuxfalar ko'targan kishilar tasvirlangan. Devorda 16 qator so'g'd yozuvi ham bitilgan. Unda «Men Chag'oniyon dapirpati (elchisi) Buxorozod hukmdor Turontosh nomidan podshoxga xurmat va extirom izhor etgani Samarqandga keldim», degan mazmundagi so'zlar bayon etiladi. Xatning oxiri «Choch elchisi og'iz ochdi» degan jumla bilan uzilib qolgan. Bu yozuv mazmunidan ma'lum bo'lishicha, Afrosiyob devoriy suratlari, musavvirning hayoli mushoxadasi bulmay, balki unda Samarqandda bo'lib o'tgan tarixiy voqea — Samarqand podshosining Choch, Farg'ona va Ustrushona davlatlari bilan olib borgan elchilik munosabatlari tasvir etilgan. Demak, ilk o'rta asr devoriy tasvirlari o'z davrining faqat oddiygina san'at yodgorligi emas, balki o'rta asrning serqirra udumlari qaror topayotgan zamonning o'ta murakkab hayoti, dinu e'tiqodi va qo'shni mamlakatlar bilan olib borilgan aloqalaridan hikoya qiluvchi qomusiy manbadir. Bunday asarlarning yaratilishida, shubhasiz,

o'z davrining taraqqiyparvar e'tiqodlaridan hisoblangan moniylik tariqatining ma'lum darajada ta'siri bo'lishi extimoldan uzoq emas.

Shuni e'tirof etish joizki, bu davrda So'g'd va Xorazmda V—VI asrlarda diniy e'tiqod va tasavvurlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan tasviriy san'at — koroplastika — ma'budalarning sopol xaykalchalarini yasash va ularga topinish keng yoyiladi. Bu davrga oid sopol xaykalchalar juda ko'pligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ular islomgacha bo'lgan joxiliyat davrida Ka'baga qo'yilgan sanamlarni eslatardi. Hatto Samarqand, Buxoro, Naxshab va Toharistonda yasalgan sopol xaykalchalarda tasvirlangan siymolar faqat yuz tuzilishidagina emas, balki kiyim-kechaklari va taqinchoklari bilan ham bir-biridan mutlaqo farq qiladi. Shu boisdan ular faqat diniy e'tiqodlar haqidagina emas, balki O'rta Osiyoning turli viloyatlarida yashagan aholining antropologik qiyofasi, kiyim-boshlari, musiqa asboblari, qurol-yarog'lari va boshqalar to'g'risida ham tasavvur beradi¹⁵.

VI—VIII asrlarda esa xaykaltaroshlik ayniqsa muhim o'rin tutgan. Uning rivojiga budda ibodatxonalariga ko'plab budda va uning mutaabbid koxinlarining loydan, ganchdan va toshdan yasalgan katta-kichik xaykallari o'rnatilgan. Termiz yaqinida Qoratepa, Fayoztepa va Dalvarzintepa, Farg'ona vodiysida Quvadan hamda Qo'rg'ontepa yaqinidagi Ajinatepadan topilgan buddaning baxaybat haykallari topilib o'rganildi. Ajinatepadan topilgan budda xaykalining kattaligi 12 metrga boradi. Bu davrda badiiy yog'och o'ymakorligi san'ati ham yuqori darajada turgan. Afrosiyob hamda Panjikentdan yog'ochdan yo'nilgan sanam, o'ymakor naqshlar (tabiat manzaralari, xayvonlar, afsonaviy jonzodlar, taxtda o'tirgan hukmdor yoki jang aravasida ketayotgan jangchi va xokazo)larning kuyib

¹⁵ O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. 206-bet.

ko'mirga aylangan qoldiqlari va bo'laklari topilgan. Ular orasida, ayniqsa, nozik did bilan nihoyatda jozibali qilib yasalgan raqqosaning noyob xaykali diqqatga sazovordir. Chap qo'lini beliga qo'yib, ung tizzasini bir ozgina bukib paqsga to'shayotgan holda tasvirlangan xaykalda raqqosaning nozik hatti-harakatidan tortib kiyim-kechagiya taqinchoklarigacha mahorat bilan juda aniq ishlangan.

Ilk o'rta asr ganchkorligi san'atining nodir yodgorligi namunalari Varaxsha topilmalari orqali tadqiq etildi. Ular orasida turli xil geometrik shakllar, mevali daraxt va o'simliklar (uzum boshlari osilib turgan tok novda va zanglari)ning o'ymakor naqshlari bilan bir qatorda ov manzarasi, turli xil hayvonlar (ot, kiyik, arhar, to'ng'iz), afsonaviy mavjudot (ajdarho, grifon, ayol boshli qush va h.q), erkak, ayol va chavandozlarning qabartma tasvirlari uchraydi. Bunday turli mazmundagi va yuqori darajali san'at bilan ganchkori kabartma naqshlar o'z davrida qadimgi Buxoro hukmdorlarining Varaxshadagi qarorgoxining xashamatli saroy devorlarini bezab turgan.

II-Bob: Ustrushona, Choch va Farg'ona mahalliy davlatlarining tashqil topishi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti

2.1.Ustrushona, Choch, Farg'ona mahalliy davlatlarining tashqil topishi

Bu davrda Farg'ona vodiysida yana bir ilk o'rta asr mahalliy davlati hukm surardi. Qadimda bu mamlakat Dovon va Farkona deb yuritilgan. Uning podsholari «ixshid» deb atalgan, poytaxti Koson va Axsikat shaharlarida joylashgan. Xitoy manbalarida ta'riflanishicha, Farg'ona yerlari juda hosildor, aholisi dehqonchilik bilan kun kechirgan, paxta va sholi ekkan. Unda bog'-u bo'stonlar va gulzorlar mo'l bo'lgan. Koson, Axsikat va Vubo kabi yirik markaziy shaharlarida hunarmandchilikning

turli sohalari rivoj topib, uning mahsulotlari ichki va tashqi bozorlarda juda haridorgir bo'lgan. Qo'shni mamlakatlarga arg'umoqlar, bo'yoq, rangli shisha buyumlar va dori-darmonlar chiqarilgan. Farg'ona vodiysida o'troq aholi bilan bir qatorda tog' va tog' oldi yaylovlarida ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvadorlar yashagan. Qurama va Qoramozor tog'lari yon bag'irlarida qadimdan yilqichilik bilan shug'ullanilgan. Bu diyorda ko'paytirilgan tulpor otlarning dong'i jahonga taralgan. Farg'onada qo'y, xachir va tuyalar ham boqilgan.

Shunday qilib, VII-VIII asrlarda Farg'ona dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik xo'jaliklari va ichki, tashqi savdo rivoj topgan mustahkam iqtisodiy poydevorli o'lka edi. Uning strategik jihatdan qulay geografik o'rni, mustahkam mudofaa inshootlari bilan ta'minlangan Koson, Axsikat, Qubo kabi yirik shaharlari, tog' qal'alari, vodiylar bo'ylab joylashgan qator-qator istehkomli qo'rg'onlari tufayli bu diyor kuchli harbiy imkoniyatga ega edi. Shularni nazarda tutganda ilk o'rta asrlarda Farg'ona O'rta Osiyoning siyosiy hayotida muhim davlat bo'lgan.

V-VII asrlarda Chirchiq va Ohangaron vodiylarida ikkita mustaqil ilk feodal davlatlari hukmronlik qildirdi. Manbalarda ulardan bin Choch davlati, ikkinchisi Iloq mulki nomlari ostida tilga olinadi. Chochning poytaxti Chochkat shahri bo'lib, podshohi «tudun» deb yuritilardi. Iloqning poytaxti Tunkat, hokimlari «dehqon» deb atalardi IV asrda Choch viloyati Eftallar davlatiga, VI asrda esa G'arbiy ilk hoqonligiga bo'ysundiriladi. VIII asrga borganda Choch va Iloq birlashib, yagona davlatga aylanadi va o'z mustaqilligini tiklab oladi¹⁶.

Choch va Iloq sertarmoq xo'jalikka ega mamlakat edi. Unda sug'orma dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, ayniqsa konchilik, ichki va tashqi savdo yuksak darajada edi. Ilk o'rta asrlarda Choch vohasi

¹⁶ O' .Mavlonov. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari. T., "Akademiya", 2008, 249-bet.

o'zil-kesil shakllanib, u 50 ga yaqin sug'orish shoxobchalari vositasida sug'orilardi. Dehqonchilikda ko'proq arpa, bug'doy va tariq ekilardi. Ayniqsa, Chochning poytaxt shahri atroflari obod edi. Unda 50 dan ortiq katta-kichik istehkomlar, feodal qo'rg'onlari va ko'shklari, obod qishloqlar qad ko'targan edi.

Choch va Iloq tog'lari oltin, kumush, rangli ma'danlar, temir va jilvador chaqmoq toshlarga boy edi. Bu tabiiy boyliklar tufayli qadimda bu o'lkada konchilik va unga asoslangan hunarmandchilik rivoj topadi. Oltin va kumushlarni kovlab olishda, ayniqsa Iloq, O'rta Sharq mamlakatlarida shuhrat topadi.

Karvon yo'lining o'lka orqali o'tishi Choch va Iloqda ichki va tashqi savdo-sotiqning kengayib, shaharlarning gavjumlashuviga imkon beradi. Chochdan oltin, kumush, qimmatbaho toshlar, g'alla, quruq meva va yilqilar chetga chiqarilgan.

Shahar aholisining bir qismi savdogarchilik bilan mashg'ul bo'lgan. VII-VIII asrlarda Sharqiy Turkiston bilan savdo-sotiq qilishda chochliklar Samarqand va Buxoro savdogarlaridan keyin uchinchi o'rinda turgan.

Choch poytaxti tashqi savdo munosabatlarining markazi edi. VII-VIII asrlarda Chochda kumush va mis tangachalar yasaydigan zarbxona bo'lgan. VIII asrda esa kumush dirhamlar hatto Iloqning kumush konlarida ham zarb etilgan. Choch tudunlari old tomoniga mulkdorning portreti, orqasiga gajak dumli sher yoki qoplon tasviri, ba'zan sulolaviy ayri tamg'a tushirilgan chaqa-tangalar zarb etganlar. Shu davrda zarb etilgan Chochning ayrim tanga pullari orasida podshoh bilan yonma-yon turgan malika tasviri tushirilgan pullar ham uchraydi. Bu siyosiy hayotda hukmdor ayollarining nufo'zini ko'rsatadi. Chochda turkcha va so'g'dcha so'zlashuvchi ikki tillilarning safi kengayib boradi. Biroq, Choch o'lkasi bu davrda Turk hoqonligiga tobe bo'lishiga qaramay, hali o'zining tili, yozuvi

va qadimiy madaniyati an'analarini saqlab qolgan edi. Bu yerda hali so'g'd tili rasmiy til edi. Chochning ijtimoiy tarkibi ham ilk feodal jamiyatiga xos edi.

Ustrushona atamasi dastlab xitoy manbalarida: Suduyshana, Shuaydo'shana, Sudushina, Sharqiy Sao, Sudulishina, Sao arab, fors manbalarida: Surushona, Sutrushona, Osrushona, Surushna, Oshrusena, Ustrushna, Ustro'shane, Ushrusona, Istarafshan tarzida uchraydi. Tarix fanida mazkur atamalarning eng maqbuli sifatida Ustrushona nomi qabul qilingin.

V asr ohirida Eftaliylar. VI asrning ikkinchi yarmidan Turk hoqonligi, VIII asrning oxiri IX asrning birinchi choragidan arab xalifaligi, IX asrning oxirlaridan Somoniylar davlati tarkibida bo'lgan Ustrushona mamlakati Somoniylardan so'ng amalda mustaqil davlat sifatida faoliyat ko'rsatmagan. Mug'ullar bosqiniga qadar Xorazmshoxlar davlati tarkibida bo'lgan.

Ustrushona haqidagi bir muncha to'liqroq ma'lumotlar o'rta asrlarga oid (IX-XII) arab, fors muapliflari asarlarida keltirilgan. Manbalarda qayd etilishicha, ma'muriy tuzilishi jihatidan o'rta asrlarda Ustrushona unchalik katta bo'lmagan 18 ta rustoqqa bo'lingan. Ushbu rustoqlarning 9 tasi tekislikda, 9 tasi esa tog'lik hududlarda joylashgan. Tekislikdagi rustoqlarga - Bunjikat, Sabat, Zomin, Asbanikat, Xarakana, Fag'non, Xavos, Shavkat, Fag'kat, tog'li hududlardagi rustoqlarga - Mink, Burnamand, Biskar, Bangam, Vokr, Shagar, Maschox, Buttam va Burgar rustoqlari kirgan. Rustoqlarning ma'muriy-markaziy bosh shahri mavjud bo'lgan. Har bir rustoq mahalliy sulola - dehqonlar tomonidan boshqarilgan. Har bir dehqon o'z qo'shiniga ega bo'lgan. Barcha dehqonlar Ustrushonaning oliy xukmdori – "afshin"ga bo'ysingan. Rustoqni boshqargan dehqon ma'lum darajada mustaqil siyosat yurgizgan. Demak,

rustoq - zodagon dehqon, davlat - afshin tomonidan boshqarilgan. Ustrushona afshini markazlashgan qo'shinga ega bo'lmagan. Qo'shin afshin topshirig'iga ko'ra har bir rustoq xarbiy otryadlari hisobiga to'ldirilgan.

Ustrushonaning shimoliy-g'arbiy rustoqi Fag'nonning tarixiy hududi hozirgi ma'muriy bo'linishlar bo'yicha, taxminan Jizzax shahri va tumani hududiga to'g'ri keladi. Fag'non rustoqining bosh shahri Dizak. So'g'd va Choch oralig'idagi, aholisi zich joylashgan yagona shahar bo'lib, ko'p sonli uylari, bozorlari, bog'lari, musofir va savdogarlar uchun karvonsaroylari bilan mashhur bo'lgan.

Ko'chmanchi chorvadorlar bilan Fag'non rustoqi chegara hududida. Dizak shahridan bir farsax masofada, IX asrning birinchi choragida Qovus o'g'li Xaydar tomonidan Xudaysar nomli rabod qurilgan. Ushbu rabod Amudaryo va Sirdaryo o'rtasidagi eng mashhur rabodlardan hisoblangan. Ion Xavkal butun Samarqandda undan yaxshiroq rabod yo'q. Savdogarlarning habar berishlaricha Xudaysarda buloq bor - deb ta'riflasa. Yoqut Xudaysar Movarounnahrdagi shahar bo'lib, Ustrushonaning chegara hududida joylashgan - deb qayd etadi. Ad-Damashqiy "Xudaysar Ustrushona tarkibidagi shahar bo'lib. Samarqand viloyati bilan chegaradosh hududda joylashgan" - deb eslatadi. Bundan tashqari ushbu mavzeda Badr Qo'shayr tomonidan qurilgan oqarsuv bilan ta'minlangan Xasan rabodi ham mavjud bo'lgan. Jizzax hududidagi rabodlar asosan ko'chmanchi chorvadorlardan o'troq xalqlarni himoya qilish maqsadida qurilgan.

Xudaysar kabi rabodlarning qurilishi IX-X asrlarda Jizzax vohasida dehqonchilik hududlarining kengayib borayotganligidan dalolat beradi. Negaki, Xudaysar rabodini suv ta'minoti uchun Sangzor daryosidan umumiy uzunligi 15 km. bo'lgan ariq chiqarilgan. Ushbu ariq qoldiqlari

bugungi kunda Uruqo'lisoy deb atalib, undan quruq o'zan va uning yoqasida Ko'kravod yodgorligi saqlanib qolgan. M.X.Pardayevning ta'kidlashicha, Xudaysar rabodi aynan ushbu Ko'krabod yodgorligi o'rnida bo'lgan.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'ldiki, Fag'nonning bosh shahri Dizak (Qaliyatepa shahar makoni) va uning atrofidagi ziroatkor yerlarni suv bilan ta'minlab turuvchi "Mulkanlik" shox arig'i IX-XII asrlarda sharqqa tomon cho'zilgan va hozirda Kaliyatepadan 1,5 km. sharqda joylashgan "To'ptolobod" mavzeigacha yetib borgan. IX-XII asrlarda aholi makonlari son jihatidan ilk o'rta asrlardagiga nisbatan kamaygan bo'lsada, yashash makonlarining hududi va uning tasarrufidagi dehqonchilik mavzelarining xajmi keskin kengaygan.

1950-1960 yillarda Ya.G'ulomov boshchiligidagi Moxandaryo ekspeditsiyasi Qaliyatepa shahar yodgorligida izlanishlar olib borib, yodgorlikning yuqori qurilish davrini X-XII asrlarga taallukli janligini e'tirof etadi. Qaliyatepadagi izlanishlar 1970-1980 yillarning birinchi yarmida yanada jonlanadi. Kompleksning so'nggi qurilish davri XIV-XVI asrlar bilan davrlanadi. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, Qaliyatepada hayot XVI asrda to'xtab, Jizzaxning ikkinchi shahar yodgorligi O'rdaga ko'chgan. O'rda Qaliyatepadan 6 km. masofada shimoliy-g'arbda "Eski shahar" hududida joylashgan. Shimoliy-garbiy Ustrushona kadimgi dehqonchilik vohalaridan biri bo'lib, vohaning asosiy suv manbai Sangzor va Zomin suv daryolari hisoblanadi. IX-XII asrlarda Ustrushonada qishloq xo'jaligining barcha tarmog'i rivojlangan. Ion Xavkalning yozishicha, Ustrushona Movarounnahrning boshqa viloyatlari singari qishloq xo'jaligi mahsulotlarining seroblighi va uning eksporti bilan mashhur bo'lgan.

Ustrushonada, jumladan, uning Fag'non rustoqida rivojlangan o'rta asrlardagi dehqonchilik, chorvachilik va xunarmandchilikning taraqqiyoti

ichki va tashqi savdo sotiqning rivojlanishiga sabab bo'lgan. Tovar pul munosabatlari ham rivojlangan. Ustrushona afshinlari tomonidan tangalar zarb etilgan. Eng ko'p tarqalgan Ustrushona afshini Abdullaxon Sayr tangalari kolleksiyasi Rossiya davlat Ermitaj muzeyida saqlanadi.

Xulosa qilish mumkinki, Ustrushona va uning mavjud barcha rustoqlarida xususan. Fag'non (bosh shahri Dizak) rustoqida ham IX-X asrlarda Movarounnaxrning barcha viloyatlarida kechgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyot yuzaga kelgan. Rustoqning bosh shahri Dizak o'z nufuzi jihatidan Ustrushonadagi uchinchi (poytaxt Bunjikat va Zomindan keyin) shahar hisoblangan. Shaharda xunarmanchilik shahar atrofida ziroatkor dehqonchilik taraqqiy etgan. Fag'non rustoqi Ustrushonaning boshqa ma'muriy hududlari qatori Somoniylar davlatiga qo'shib olingandan so'ng, bu yerda bir necha yangi shahar va qishloqlarga asos solingan. Hozirda mavjud, Qizlartepa, O'rda, Qummozortepa shahar va qishloq turar joy maskanlari ushbu fikrlarga asos bo'ladi.

Somoniylar davrida. Jizzax "islom lashkari" g'oziylar qarorgohiga aylangan. Jizzaxning eng ko'xna musulmon qabristonlaridan biri "Xoja Goziyon" qabristoni X asrda o'z faoliyatini boshlagan.

Kelajakda IX-X asrlarga oid mavjud arxeologiya yodgorliklarida qazuv-tadqiqot ishlari o'tkazilsa, Jizzax tarixining ushbu davriga oid ilmiy yangiliklar qo'lga kiritilishm shubhasizdir¹⁷.

Ilk o'rta asrlarda Choch voxasi ham mintakaning ichki va tashqi iqtisodiy-madaniy aloqalarida katta o'rin tutardi. Bu davrda Chochda 32 ta yangi shahar bo'lib, ularning ko'pi yangi shaharlar edi. Bu davrga oid Xitoy manbalarida Choch vohasi Shi yoki Chjechji (Chjeshi) deb atalib, Suyye (Sirdaryo. — U.M.) daryosining o'ng qirg'og'ida joylashgani, hukmdori qarorgoxi Chjesi shahri ekanligi, uning janubi-sharqida

¹⁷ Karim Shoniyoov. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. T., "Sharq", 2001, 268-bet.

joylashgan tog'larda marvarid toshi mavjudligi qayd etiladi. Bu voha orqali ko'rib chiqilayotgan davrda mintaqaning sharqiy (Farg'ona vodiysi) va shimoliy dasht hududlaridan Amudaryo kechuvlariga qarab ketuvchi yo'llar o'tgan. Choch vohasi shimoldagi dasht chorvadorlari va Sibir hamda Xitoy bilan aloqalarda ham asosiy o'rin egallagan hududlardan biri edi.

Farg'ona vodiysining ham ilk o'rta asrlarda mintaqaning ichki va tashqi iqtisodiy-madaniy aloqalaridagi ahamiyati katta edi. Vohada joylashgan yirik shaharlar mintaqada miqyosida ham, mintaqaning tashqi aloqalarida ham yirik savdo markazlaridan bo'lgan.

Umuman olganda, mintaqadagi ilk o'rta asrlar ichki savdo yo'llari tashqi aloqa-savdo yo'llarining, Buyuk ipak yo'lining muhim tarmoqlari bo'lishgan. Ilk o'rta asrlarga kelib O'rta Osiyo hududi orqali o'tgan tranzit aloqa yo'llari tizimida muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Qadimgi davr va antik davrda qaror topgan tranzit aloqa yo'llarining ba'zi yo'nalishlari o'z ahamiyatini yo'qotdi, ular o'rniga mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatga bog'liq holda xalqaro tranzit aloqa yo'llarining yangi tarmoqlari vujudga keldi.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, qadimgi davrdayoq O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekistonni Hindiston, Xitoy, Kavkaz, Qora dengiz bo'ylari mamlakatlari bilan bog'lovchi quruqlik va suv yo'llari shakllanib bo'lgan edi. Bu davrda Sharq, va Fapbiy uch asosiy transmintaqaviy yo'l bog'laganligini yuqorida ko'rib chiqqan edik. Birinchisi, janubiy, ya'ni suv yo'li bo'lib Misrdan Hindistonga, u yerdan Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlariga o'tgan. Ikkinchi yo'l esa Rimdan boshlanib O'rta yer dengizi orqali Suriya shahri Giropolga, u yerdan Mesopotamiya, Shimoliy Eron, O'rta Osiyo orqali Sharqiy Turkiston va Xitoyga olib borgan. O'rta Osiyoning markaziy viloyatlaridan Baqtriyaga, Tohariston, Hindistonga va

aksincha, Xindistondan Samarqanddan Farg'ona va Shoshga qarab ketuvchi yo'llar o'rta asrlarda Ustrushona nomi bilan yuritila boshlagan viloyat orqali o'tgan. Arab geograflari Istaxriy, Ibn Xavqal va boshqalarning asarlarida Ustrushona haqida muhim ma'lumotlar mavjud. Hususan, Ibn Xavqal (X asr) o'z asarida bu viloyat "Ushrusana" tarzida nomlanib, u sharqdan Farg'onaning bir qismi (sharqiy qismi) va Pomir, g'arbdan Samarqand viloyati, shimoldan Shosh va Farg'onaning bir qismi (shimoliy qismi, ya'ni Xo'jand), janubdan Kesh, Sag'aniyon, Shuman, Vashgird va Rashtoning ba'zi rustoqlari bilan chegaralanganligi, eng katta shahri mahalliy aholi tilida Bunjikat deb atalib, hukmdor qarorgohi bu shaharda joylashganligini, undan tashqari rustoqlarning markazi bo'lgan 10 ta shahar (Arsanikat, Kurkat, Gazan, Fapsat, Sabat, Zomin, Dizak, Nujkat, Xarakana va Marsmand) va shaharlarga ega bo'lmagan 7 ta rustoqlar borligi ta'kidlanadi. Bu manbaga ko'ra shahar kuxandiz, shahriston va rabotdan iborat bo'lib, shahristonda 2 darvoza, rabotda esa 4 darvoza (Zomin, Marsmanda, Nujakat, Qaxlabod darvozalari) mavjud bo'lgan. Shahar darvozalarning nomlanishi Bunjikatning aloqa yo'llari yo'nalishidan dalolat beradi. XII asrda bu shahar tushkunlikka uchraydi. Ba'zi mutaxassislar O'ratepa yaqinida joylashgan Shahriston qishlog'idagi Qal'ai Qahqaxa yodgorligini Bunjikat harobalari deb xisoblaydilar¹⁸.

Ustrushona shaharlarini va qishloqlarini bog'lab turuvchi ichki yo'llar tarmog'iga ega bo'lib, ular o'z navbatida, O'rta Osiyodagi o'rta asrlar davridagi savdo yo'llarining tarkibiy qismi sifatida ham ahamiyatga ega edi. Manbalarda Ustrushona shaharlarini bog'lovchi yo'llar, ular orasidagi masofalar haqida ham ma'lumot beriladi. Bu ma'lumotlar bir-birini to'ldiradi va Ustrushona orqali o'tuvchi savdo yo'llari yo'nalishlarini aniqlashtirishda katta ahamiyatga ega. Xususan, vohaning yirik siyosiy va

¹⁸ O'.Mavlonov. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari. T., "Akademiya", 2008, 255-bet.

hunarmandchilik markazi bo'lgan Bunjikat So'g'ddan Farg'ona va Shoshga o'tuvchi savdo yo'llari chorrahasida joylashgan bo'lsa, Zomin So'g'ddan Fargonaga ketuvchi yo'lning muxim bekati, Dizak (Jizzax) esa cho'l orqali Shoshga olib boradigan yo'ldagi yirik savdo markazi edi. Ibn Xdvkal Harakana, Zomin va Sabirni Farg'onadan Shoshga ketuvchi yo'lda joylashgan shaharlar sifatida eslatib o'tadi. Shu o'rinda bu ma'lumotga biroz aniqlik kiritish zarur. Xususan, Zomin Farg'ona — Shosh yo'lida joylashmagan bo'lib, u orqali, asosan, Samarqanddan Xo'jand orqali Farg'onaga yoki Xovos orqali Shoshga olib boruvchi yo'l utgan. X-XII asrga oid arab geograflari asarlarida Samarqanddan Xo'jandga o'tuvchi yo'lni karvonlar 8 kunda bosib o'tishi va oraliqda joylashgan manzillar haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud. Shu o'rinda, Ustrushananing poytaxti bo'lgan Bunjikat shahri bu asosiy yo'ldan biroz chetda joylashganini qayd qilib o'tish kerak.

Ustrushonadan Chirchiq vodiysiga ikki yo'nalishda yo'l utgan bo'lib, birinchisi Xovos orqali, ikkinchisi Chirchiq orqali o'tardi. Ustrushona shaharlaridan bo'lgan Sabotdan Arkent yoki Rukund orqali Xo'jandga o'tish mumkin bo'lgan. Asosiy yo'llarda doimiy turar joylar, karvonsaroylar, hududlar bo'lgan.

Rivojlangan o'rta asrlarda keng foydalanilgan karvon yo'llarining yana bir yo'nalishi Buxorodan shimoli-sharqda — Nurotaga, u yer dan tomar bo'ylab Shimoliy Ustrushonaga, so'ngra esa Sirdaryo vohasiga, Shoshga yoki O'troga olib borgan. By yo'llar bo'ylab bir necha karvon-saroy, rabot va qal'alar xarobalari, ularning ayrimlari yonida quduqlar yoki sardobalar bo'lgani aniqlangan. Nurota — Forish — Jizzax yo'lida joylashgan bu yo'l bo'yi inshootlari Nurota tog' tizmasidan ishmol tomonmdagi cho'l hududida topilgan bo'lib, ular ichida eski Forishdan 9 km. shimoliy-g'arbdagi Uxumsoyda joylashgan Qushtepadan topilgan

karvonsaroy, Xonbandi tog'ning g'arbiy qismidagi Uzunquduq yodgorligi o'rnidagi karvonsaroy, undan 15 km. cha sharqda, Ilonchisoyda X asrda bunyod etilgan Xonbandi yaqinidagi Kaltepa yodgorligi o'rnidagi yirik karvonsaroy e'tiborga loyiqdir. Kaltepadagi karvonsaroy yaqinida ikkita sardoba bo'lgani X-XII asrlarda bu yo'nalishdagi karvon yo'lidan ancha faol foydalanilganidan dalolat beradi

2.2.Ustrushona, Choch, Farg'ona mahalliy davlatlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.

Bu davrda Farg'ona vodiysida ilk o'rta asrlarning yana bir mahalliy davlati hukm surardi. Qadimda bu mamlakat Dovon va Fagona (Farg'ona) deb yuritilgan. Uning podsholari «ixshid» deb atalgan, poytaxti Koson va Axsikat shaharlarida joylashgan. Dovon shimol tomondan Yettisuv, g'arbdan Choch va Eloq, janubiy-g'arbdan So'g'd, janubdan Tohariston va sharqdan Sharqiy Turkiston viloyatlari bilan chegaradosh bo'lgan. Xitoy manbalarida ta'riflanishicha, Farg'ona yerlari juda hosildor, aholisi dehqonchilik bilan kun kechirgan, paxta va sholi ekkan. Unda bog'u bo'stonlar va gulzorlar ko'p bo'lgan. Koson, Axsikat va Qubo kabi yirik markaziy shaharlarida hunarmandchilikning turli sohalari rivoj topib, uning mahsulotlari ichki va tashqi bozorlarda juda haridorgir bo'lgan. Qutbli mamlakatlarga arg'umoqlar, bo'yok, rango-rang shisha buyumlar va dori-darmonlar chiqarilgan.

Farg'ona vodiysida o'troq ahli bilan bir qatorda tog' va tog' oldi yaylovlarida ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvadorlar yashagan. Qurama va Qoramozor tog'lari yon bag'irlarida qadimdan yilqichilik bilan shug'ullanilgan. Bu diyorda ko'paytirilgan tulpor otlarning dong'i jahonga taralgan. Farg'onada qo'y, xachir va tuyalar ham boqilgan.

Shunday qilib, VI—VIII asrlarda Farg'ona dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik xo'jaliklari va ichki, tashqi savdo rivoj topgan mustaxkam iqtisodiy poydevorli ulka edi. Uning strategik jihatdan kulay geografik urni, mustahkam mudofaa inshootlari bilan ta'minlangan Koson, Axsikat, Qubo kabi yirik shaharlari, tog' qal'alari, vodiy bo'ylab joylashgan qator-qator istexkomli qo'rg'onlari tufayli bu diyor kuchli harbiy imkoniyatga ega edi¹⁹. Shularni azarda tutganda ilk o'rta asrlarda Farg'ona O'rta Osiyo siyosiy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan qudratli davlat bo'lgan.

V—VI asrlarda Chirchiq va Ohangaron vodiylarida ikkita mustaqil ilk o'rta asrlarning mahalliy davlatlari hukmronlik qildi. Manbalarda ulardan biri Choch davlati, ikkinchisi Iloq mulki nomlari ostida tilga olinadi. Chochning poytaxti Chochkat shahri bo'lib, podshohi «tudun» deb yuritiladi. Xitoy manbalarida Choch viloyati Shi va Chje-Shi nomlari ostida ta'riflanadi. Eloqning poytaxti Tunkat shahri bo'lgan. Xokimlari «dehqon» deb atalgan. V asrda Choch viloyati Eftallar davlatiga, VI asrda esa g'arbiy Turk hoqonligiga bo'sundirilgan. VIII asrga borganda Choch va Iloq birlashib yagona davlatga aylanadi va o'z mustaqilligini tiklab oladi. Choch va Iloq shimol va Fapb tomondan g'arbiy Turk hoqonligi, sharqdan Farg'ona va janubdan Ustrushona bilan chegaradosh bo'lgan.

Choch va Iloq sertarmoq xo'jalikka ega mamlakat edi. Unda sug'orma dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, ayniqsa, konchilik, ichki va tashqi savdo yuksak darajada rivojlangan. Ilk o'rta asrlarda Chirchiq daryosidan Zogariq, Buzsuv, Anhor va Kalkovuz kabi yirik sug'orish tarmoqlari qazib chiqarilishi natijasida Chochning ekin maydonlari nihoyatda kengayadi. Bu davrda Choch vohasi uzil-kesil shakllanib, u 50 ga yaqin sug'orish shahobchalari vositasida sug'orilardi.

¹⁹ Quva (Qubo) asarlar nigohida. "Quva (Qubo) asarlar nigohida" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy seminari materiallari. Farg'ona, 2006, 45-bet.

Dexqonchilikda ko'proq arpa, bug'doy va tariq ekilardi. Ayniqsa, Chochning poytaxt atroflari obod edi. Unda 50 dan ortiq katta-kichik istexkomlar, zodagon dehqon qo'rg'onlari va ko'shklari, obod qishloqlar qad ko'targan edi²⁰.

Choch va Iloq tog'lari oltin, kumush, rangli ma'danlar, temir va jilvador chaqmoqtoshlarga boy edi. Bu tabiiy boyliklar tufayli qadimda bu o'lkada konchilik va unga asoslangan hunarmandchilik rivoj topadi. Chotqol va Qurama tog'larida joylashgan Kuxisim, Lashkarak va Koni Mansurdan kumush Ko'lbuloq va Qizilolma soy konlaridan oltin hamda Ungurlikon va Oqtuproq konlaridan esa firuza kovlab olinardi.

Rangli va nodir ma'dan konlarining yaqinligi, ayirbosh savdo bozori bo'lgan ko'chmanchi chorvadorlar dashtining Choch va Eloqda tutashib ketgani, mamlakatlararo tashqi savdo aloqalarini bog'lovchi karvon yo'lining o'lka orqali o'tishi Choch va Eloqda ichki va tashqi savdo-sotiq kengayib, shaharlarning gavjumlashuviga imkon beradi.

Chochning mohir ustalari metallardan qurol-yarog', uy-po'zg'or buyumlari, oltin va kumushlardan turli xildagi zebi-ziynatlar yasaganlar, teri oshlab, charm pishirib, paxta va jundan mato to'qib, sopol va shisha idishlar yasab, ular ichki va tashqi bozorni hunarmandchilik mahsulotlari bilan ta'minlaganlar. Chochdan oltin, kumush, qimmatbaho toshlar, g'alla, quruq meva va yilqilar chetga chiqarilgan.

Shahar aholisining bir qismi savdogarlik bilan mashg'ul bo'lgan. VI—VIII asrlarda Sharqni Turkiston bilan savdo-sotiq qiliqda chochliklar Samarqand va Buxoro savdogarlaridan keyin uchinchi urinda turgan. Choch poytaxti tashqi savdo munosabatlarining markazi edi.

²⁰ A.Asqarov. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. T., "Universitet", 2007, 205-bet.

VII—VIII asrlarda Chochda kumush va mis tangalar yasaydigan zarbxona bo'lgan. VIII asrda esa kumush dirhamlar xatto Eloqning kumush konlarida ham topilgan. Choch tudunlari old tomonga mulkdorning portreti, orqasiga gajak dumli sher yoki qoplon tasviri, ba'zan sulolaviy ayri tamg'a tushirilgan chaqa-tangalar zarb etganlar. Shu davrda topilgan Chochning ayrim tanga pullari orasida podshoh bilan yonma-yon turgan malika portreti tushirilgan pullar ham uchraydi. Bu, shubhasiz, ilk o'rta asrlarda Chochning ijtimoiy va iqtisodiy, ayniqsa, siyosiy hayotida hukmdor tabaqa ayollarining ancha-muncha nufuzga ega bo'lganidan guvohlik beradi.

Bu davrda turkiy qabilalar utroqlashuvining kuchayishi, chochliklar bilan olib borilgan doimiy iqtisodiy aloqalar tufayli Choch vohasi o'zaro madaniy muloqotlar markaziga aylanadi. Chochda turkcha va So'g'dcha so'zlashuvchi ikki tillilarning safi kengayib boradi. Birok, Choch o'lkasi bu davrda Turk hoqonligiga tobe bo'lishiga qaramay, hali o'zining tili, yozuvi va qadimiy madaniyati an'analari saqlab qolgan edi. Bu yerda hali So'g'd tili rasmiy til sifatida yuritilib, davlat ishlariga oid xujjat, chaqa va tangalar zarb etishda hukmdorlar nomidan bitiladigan yozuvlar So'g'd xatida ifodalanardi.

Chochning ijtimoiy tarkibi ham ilk o'rta asrlar jamiyatiga xos edi. U mulkdor tabaqa — zodagon dehqonlar, mehnatkash tabaqa — erkin jamoa a'zolari — ozodlar (kashovarzlar), yerdor va mulkdor tabaqaga mute — kadivarlar hamda erksiz patriarxal qul va cho'rilar iborat edi.

Ilk o'rta asrlarda So'g'dda shahar va qishloq aholisi «naf» deyilgan. Ijtimoiy jihatdan u bir nechta tabaqaga bo'lingan. Zodaganlar «ozod», shahar hunarmandlari «ozodkor», savdogarlar «Fyvokor», ziroatkorlar «kashovarz», xizmatkorlar «korikor», mute qo'shchilar «kadivar», qul va cho'rilar — erkaklar «bantak» va ayollar «doya» deb yuritilgan. Aslzoda

zodagon — «ozod»lar tabaqasiga podshoh mahalliy hukmdorlar va zodagon dehqonlar kirgan. Bu ijtimoiy zinapoyaning tepasida turli unvonlar bilan ulug'langan hukmdor turgan. Uning tasarrufida davlat mulkidan tashqari uz shaxsiy mulki ham bo'lgan. Undan mulkdor sifatida podsho shaxsan o'zi foydalangan. Dehqonchilik maydonlarining kattagina qismi mahalliy hokimlar va zodagon dehqonlarning mulki hisoblangan. Ularning yerlarida kadivarlar chorakor sifatida qo'shchilik qilganlar. Kadivarlarning mutlaqo yeri bulmagan. Ekinzorlarining bir qismi erkin kashovarzlarning mulki bo'lib, ular davlatga soliq to'lab turganlar. Bulardan tashqari, So'g'dda ibodatxonalar va ularning tasarrufida mulk va yerlar ham bo'lgan. Ibodatxonalar «vaga», uning bosh ruhoniylar mulozimi, ya'ni koxini «vagapat» deb yuritilgan. Kohinlar tasarrufidagi yerlar esa «vashze» deb atalgan. Bunday yerlardan olinadigan daromad ibodatxona ehtiyojiga sarflangan. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo vohalarida hukm surgan mayda davlatlarda va ularning viloyat xokimliklarida ma'lum tartibdagi boshqaruv ma'muriyati tashkil topgan. Uning pog'onalarida saroy xo'jaligining boshqaruvchisi «farmondor» va bosh kotib «dapirpat» dan tortib, soliq yig'uvchi «vozkirom» — miroxo'r, jallod, bosh novvoy, bosh sokiylar va sarkardagacha munosib o'rin egallagan.

Yirik shaharlarga o'rtnashgan viloyat hokimlari «xvabu va xvatov» deb yuritilgan. O'z mulklarini boshqarishda ular asosan chokarlarga suyanardi. Mulkchilik munosabatlari harbiy qo'shin tuzilishiga ham ta'sir qilgan. Otliq askar — suvoriylar dehqonzodalardan, piyodalar esa mehnatkash ahlidan yollangan va tutma qullardan tuzilar edi.

Ilk o'rta asr boshqaruv ma'muriyatining asosiy vazifasi fuqarolardan boj, soliq va yasoqlarni o'z vaqtida yig'ib olish, jamoat ishlariga ularni safarbar etishdan iborat bo'lgan. Ma'muriyat o'z vazifasini astoydil

bajargan. Kirim-chiqimlar aniq va ravshan qayd etilib, xujjatlantirilgan. Ularga barmoq bosilib, hatto muhr bilan tasdiqlab qo'yilgan²¹.

Mamlakatni boshqarishda ham an'anaviy tartib va udumlar bo'lgan. Narshaxiyning yozishicha, VII asr oxirlarida Buxoroning taxt vorisi xali go'dakligi tufayli uning tul qolgan onasi yurtni boshqargan. Ayrim manbalarda u Xutokxotun nomi bilan tilga olinadi. Malika Buxoroda donolik bilan hukmronlik qilgan, xalq unga itoatda bo'lgan. U mamlakatni boshqarishda quyidagi tartibni o'rnatgan edi. Malika mulozimlari bilan har kuni arkning Registon darvozasi oldiga kelib, taxtga o'tirardi. Malikzoda va dehqonzodalardan ikki yuz yigit bellariga zarrin kamar va qilich taqib kechgacha saf tortib xizmatda turishardi. Malika «podshohlik ishlari bilan mashg'ul bo'lar, yaxshilikka da'vat qilib, yomonlikdan qaytarar, istagan kishisiga sarpo kiygizib, istagan kishisiga jazo berar edi». Quyosh botgach malika qasrga qaytardi. Ertasi kun boshqa jamoadan yana 200 dehqonzodalar ikki qator saf tortishib, xizmatda dong qotardi. Shu tarzda har bir jamoa bir yilda to'rt marotaba xizmatga kelishi lozim edi. Narshaxiyning bu ta'rifi bo'yicha birgina buxorxudotlarning viloyat hokimligi boshqaruvida qariyb 18 ming mulozim navbat bilan xizmat qilgan.

Shuni ta'kidlash o'rinliki, asrlar davomida o'zlashtirilib obod etilgan Buyuk Turkiston diyorida mazlumlarning mashaqqatli mehnati bilan yetishtirilgan noz-ne'matlar, to'plangan turli-tuman boyliklardan hamma vaqt asosan zodagon tabaqa vakillari bahramand bo'lardi. Ular hashamatli qasr va ko'shklarda yashar, qimmatbaho kiyimlaru oltin, kumush va javohir taqinchoklarda, zarrin kamarga qilich taqib taxt va ot ustida mamlakatning mazlumlari tepasidan hukmronlik qilardi.

²¹Vatan tarixi. T., "O'qituvchi", 1997, 198-bet

VI—VIII asrlarda ham mehnatkash aholining hayoti nihoyatda og'ir kechgan. U hamma vaqt nochorlik, tanglik, havf-xatar va muxtojlikda yashagan. Og'ir qo'l mehnati evaziga yetishtirilgan mahsulotning bir qismini soliqlar hisobida davlatga topshirib, qolgan rizq-ro'ziga shukrona va qanoat qilib kun kechirgan. Osoyishtalik zamonlarida uzluksiz amalga oshirilgan xasharlar (sug'orish shahoblari qazish, ularni loyqadan tozalash, shahar devorlarini ta'mirlash, qal'a, qasr, ko'shklar bino qilish, ko'priklar qurish va x-q) da ishtirok etishga majbur bo'lgan. Yovgarchilik davrlarida esa lashkarlar safida turib, kindik qoni to'kilgan vatanini tashqi dushman tajovuzidan mudofaa qilishda ko'kragi bilan qalqon bo'lgan. Yillar davomida to'xtovsiz olib borilgan o'zaro urushlar oqibatida vayron etilgan uy-joylar, shaharu qishloqlarni qayta tiklab, yana yurtini obod etgan. Doimo mehnatni muqaddas bilib, e'tiqod bilan yetishtirgan halol noni bilan bolachaqasini boqqan, voyaga yetkazgan va mehnatkash xalq ommasi safini muttasil to'lg'azib, buyuk inson zotidan vatanga munosib avlod qoldirgan.

Shunday qilib, ilk bor Osiyoda Xitoy imperiyasi qatorida buyuk saltanatlikni tashkil etgan. Turk hoqonlari hukmronlik qilgan davrda turklarning siyosiy va madaniy merosi Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo va Janubi-Sharqiy Yevropa tarixiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, vatanimiz aholisining qadim zamonlardayoq shakllanib rivoj topib kelayotgan yuqori darajadagi dehqonchilik madaniyati bilan omuxtalashib, Buyuk Turon diyorining ilk o'rta asr madaniyati va unga asoslangan ma'naviyati qismiga yetkazildi.

2.3.Ustrushona, Choch, Farg'ona aholisining diniy e'tiqodi va madaniyati

Ustrushona, Choch, Farg'ona aholisining islomgacha bo'lgan diniy e'tiqodlari haqida yozma manbalarda ko'plab ma'lumotlar berilgan. Masalan arab sayyohi al-Muqaddasiy Farg'ona vodiysidagi Qubo shahri haqida quyidagicha ma'lumot bergan:

«Qubo shahri katta bir viloyatning poytaxti bo'lib, bu yerda undan boshqa shaharlar yo'qdir. Qubo butun Farg'onada ikkinchi shahar hisoblanib, suvlarining va bog'larining ko'pligi jihatidan hatto Axsikentdan ustunlik qiladi...»

Quva nafaqat yurtimizning balki O'rta Osiyodagi eng qadimiy shaharlarning madaniy markazlaridan biri hisoblanadi. Arab geograf sayyohi ibn Xavqalning X asrda yaratilgan «Hudud-ul olam» asarida Quva Yevropa bilan Xitoyni bog'lab turadigan «Buyuk ipak yuli» dagi eng muhim strategik markazlardan biri ekanligi qayd etilgan. Lekin shahar tarixi yanada uzoq davrlarga borib taqaladi. Prezidentimiz I.A.Karimovning "Biz Farg'ona zaminiga, Quva tuprog'iga, shu yerda o'tgan odamlarning ruhi oldida va bugun yashayotgan avlodlar qarshisida ta'lim qilamiz" - degan gaplari bejiz aytilmagan.

Yuqoridagi fikrlarning to'g'riligini mashhur arxeologlar Yahyo G'ulomov, V.A.Bulatova, V.D.Jukovlarning shahar markazidagi tepaliklarda olib borgan qazish va tadqiqot ishlari yakunlari ham isbotladi. Qazishlar mobaynida eramizdan avvalgi ming yillikka taalluqli topilmalarga duch kelindi. Ayniqsa, budda diniga oid ibodatxona arxeolog olimlar e'tiborini tortdi. Ibodatxonadagi haykalchalar, mehrob, toqchalarning to'zilishi Kuvaning ko'plab karvonlar to'xtab o'tadigan yirik markazlaridan biri bo'lganligidan darak beradi. Qubo shahristoni eramizning I asridayoq katta shahar sifatida alohida o'rin tutganligi

aniqlandi. Tepalikning g'arbiy qismida joylashgan ark yonida VII-VIII asrlarga oid Budda ibodatxonasi ham aynan shu shaharda joylashgan edi. Mazkur ibodatxona arxeolog V.A.Bulatova tomonidan 1957 yildan o'rganila boshlandi. Ibodatxonada taxminan 2,5 metr atrofidagi budda xaykali topilgan. Budda siymosida turkiylashgan yuz tuzilishini ko'ramiz. Bu esa Qubo ibodatxonasining o'ziga xos hususiyati hisoblanadi.

Karvonsaroylarda esa vodiy olamiga mashhur tulporlar quboliklar xizmatiga shay turgan. Arxeolog olim Matboboyevning fikricha, Qubo - Qoshg'ar - Farg'ona xalqaro savdo yo'li bo'yidagi yirik shahar bo'lgan. Sharqda Xitoy va Mug'uliston tomonlardan, janubda Afg'oniston va Hindistondan, g'arbda Xorazm o'lkalaridan savdogarlar tez-tez qatnab turishgan²².

Qadimgi Qubodagi buddizm Hindiston va boshqa joylarda tarqalgan buddizmdan farq qiladi. Chunki Qubo ibodatxonasida turli-tuman e'tiqod va urf-odatlar birgalikda yoki yonma-yon bajarilib kelingan. Qubo shahrida budda dini rivojlangan bir vaqtning o'zida yana ikki din zardo'shtiylik va shomiylik dini keng faoliyat ko'rsatgan. 1956 yilda V.D.Jukov tomonidan olib borilgan qazuv-qidiruv ishlari chog'ida topilgan xumlar ham shundan dalolat beradi. Chunki o'sha xumlarga zardushtiylik diniga e'tiqod qilgan quboliklar o'z yaqinlarini dafn etgan. O'sha davr Qubo shahristonida yashagan qadim aholining zardushtiylik dini bilan bog'liq an'anglarining ayrimlari hozirda ham quboliklarni oila-turmush, marosim va urf-odatlarida saqlanib qolgan. Jumladan, qabr ustiga sham yoqib qo'yish, odam o'lganda olovni bulg'amaslik uchun uch kungacha shu xonadon o'chog'ida olov yoqilmasligi va ovqat pishirilmasligi, mayit chiqqan xonadonda qirq kungacha chiroqni o'chirmaslik, kelin va kuyovni olov atrofida aylantirish kabi odatlar bevosita zardushtiylik dini bilan bog'liqdir.

²² Quva (Qubo) asarlar nigohida. "Quva (Qubo) asarlar nigohida" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy seminari materiallari. Farg'ona, 2006, 87-bet.

Quboning o'sha davrdagi aholisi budda ibodatxonasi bilan yonma-yon yashab, osmon yoritgichlari, olov va yerga sig'inish bilan bog'liq bo'lgan o'zlarining qadimiy diniy marosimlariga ham sodiq qolganlar. Ularning uylarida mehrob va ibodat qiladigan joylar bo'lgan. Hozirda ham quboliklar xonadonlarida mehrob qurish an'analari saqlanib qolgan. Bundan tashqari qabrlar ustiga sag'analar qurish buddaviylik dini bilan bog'liq odatdir. Ibodatxona arab istilochilari tomonidan vayron qilingan. Lekin ko'p asrlar mobaynida bu ilohiy makonni avlodlar yodidan chiqarmay, marhumlarni tepaliklarga ko'mib, shu yo'l bilan ibodatxona haqidagi oz bo'lsada xotiralari saqlanib qolgan.

Bugungi kungacha davom etib kelayotgan bu marosimlar milliy ta'lim-tarbiyamizning asosi hisoblanadi. Bunday urf-odatlarimizning barchasi juda katta qadr-qimmatga ega bo'lib, ular xalqimizning manfaatlariga xizmat qilib kelmoqda.

VII asr Xitoy sayyohi Syuan Szanning ma'lumotlariga ko'ra, birgina Qoshg'arda bir necha yuz budda ibodatxonalari bo'lgan. Ularda o'n mingdan oshiqroq buddaviy rohiblar istiqomat qilib, zohidlik bilan o'z dini yo'lida xizmat qilgan. Yozma manbalarda qayd etilishicha, budda ibodatxonalari yer-suv va qimmatbaxo buyumlardan iborat katta boylikka ega bo'lgan. VI asr Xitoy ziyoratchisi Son Yunning yozishicha, Sharqiy Turkistonning budda ibodatxonasida o'rnatilgan birgina budda oltin haykalining balandligi 12 m bo'lgan²³.

Yozma manbalar qazib o'rganilgan qator budda ibodatxonalarida qayin po'stlog'iga bitilgan budda qo'lyozma topilmalaridan ma'lum bo'lishicha, ilk o'rta asrlarda budda dini va uning targ'iboti Toharistonda, So'g'd, Farg'ona va Sharqiy Turkistonda ham o'z faoliyati bilan iz qoldirgan. Budda dinining targ'ibotchi xatiblari Choch va Farg'ona vodiysi

²³ Sh.Karimov, R.Shamsutdinov. Vatan tarixi. T., "O'qituvchi", 1997, 212-bet

orqali Yettisuv va Sharqiy Turkistonga hamda Xitoyning ichki viloyatlariga kirib borganlar. Budda diniy qo'lyozma matnlarini sanskrit tilidan tohar va undan xitoy va turk tillariga tarjima qilishda So'g'd, Tohariston, Marv va Qang' ulamo rohiblarining xizmati katta bo'lgan. Bunday diniy kitoblar orqali buddaviy aqidalari, jismoniy va axloqiy poklik, halollik, to'g'rilik va ruhiy kamolot tarkib qilinib, qotillik, o'g'rilik, yolg'onchilik, axlokiy nopoklik va sarmastlik ta'qiq etilgan.

Turk hoqonligining chorvador aholisi qadimdan shomon diniga sig'inib kelgan. Bu din animistik tasavvur, jon va ruhlarga sig'inish e'tiqodini tarbiyalagan. Qadimda turklar o'z dinini «qam» deb yuritganlar. Chunki ularda «shomon» degan so'z bo'lmagan. VI—VIII asrlarda G'arbiy Turk hoqonligining chorvador aholisi o'rtasida buddaviy va nasroniy jamoalari paydo bo'lib, ayrim Turk hoqonlari bu yangi dinlarga homiylik qilsalarda, ammo chorvador ahlining aksariyati hali «shomon» diniga e'tiqod qilardi. Bu din koinotni yuqlikdan bor qilgan «ko'k tangri»ga e'tiqod qiluvchi tavhid (yakka xudolik) dini qisoblanardi. Ammo shunday bo'lsada, tabiat hoisalari bilan bog'liq bo'lgan uning bir qancha tangrilari bo'lgan. Ezgulik, qorong'ulik, yer-suv va qurilish homiylari hisoblangan tangrilar shular jumlasidandir. Chorvador, ko'chmanchi aholi bu tangrilarga bag'ishlangan marosimlar o'tkazib kurbonliklar qilishgan. Masalan, buyuk tangri — ko'k tangri sharafiga yozda baland tog' ustida qurbonlik uchun qora qashqa ot bo'g'izlangan. Shomon dinining ta'limotini talqin etuvchi urf, aqida va marosimlarni bajarishda rahnamolik qiluvchi dindorlari bo'lardi. Ularning yetuk bilimdonlari «qam» va «tuyin» deb atalardi. Qam va tuyinlar zohidlikda o'rnak bo'lib, aholi o'rtasida ularning nufuzi juda baland edi. Ular ibodatxonalarda yashab, doimo ibodatda bo'lardi. Bu to'g'risida XI asrning nodir yozma manbai — Maxmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'atit turk» kitobida «Tuyin burxonka

yukundi, tuyin sanamga topindi», ya'ni tuyin butxonaga kiradi va sanamga topinadi, deb ta'kidlanadi. Qam va tuyinlar ulamo muftiylar darajasidagi ruhoniylar hisoblanardi. «Tun-kun topun tangriga bo'ysunmagan. Qorkun anar eymanu uynamatil», ya'ni kecha-kunduz ulug' tangriga ibodat qil, yo'ldan ozib adashma, Xudodan kurk» undan uyal, degan tartiblar aytib, kam va tuyinlar aholini e'tiqod yo'lga chorlaganlar va bu yo'lda o'zlari o'rnak bo'lib, orqalaridan avomni ergashtirganlar.

Demak, VI—VIII asrlarda O'rta Osiyoda, avvalda Eftaliylar davlati, so'ngra Turk hoqonligi hamda mayda mahalliy hokimliklar hukm surgan davrda aholi zardushtiy, buddaviy, nasroniy, moniy va qam kabi bir nechta dinlarga sig'ingan, ya'ni din erkinligi mavjud bo'lgan. Viloyatlarning o'troq dashtiylarning ko'chmanchi aholisi o'rtasida bu dinlarga e'tiqod qiluvchi qavmlar va jamoalar bo'lgan. Ba'zi bir viloyat hududlarida diniy e'tiqod udumlari va rasm-rusmlari omuxtalashib, aholining ma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan, O'rta Osiyo va qo'shni mamlakatlar aholisining o'zaro madaniy aloqalariga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Bu diniy e'tiqodlarning omuxtasi asosida O'rta Osiyo xalqlarining ilk o'rta asrlarning serjilo moddiy va ma'naviy madaniyati shakllandi va rivoj topdi.

Xitoy manbalaridan ma'lum bo'lishicha, VI—VIII asrlarda O'rta Osiyoda musiqa, raqs, qo'shiqchilik, qiziqchilik va dorbozlik kabi san'atning boshqa turli sohalari ham kamol topgan edi. Bu davrda san'at sohasida Buxoro aktyorlari, Samarqand naychilari, Toshkent o'yinchi yigit va raqqosa qizlari, Xutan surnaychilari va Kucha bastakorlari bilan shuhrat topgan edi. VIII asr boshlarida Choch, Samarqand, Kesh va Maymurg'dan raqqosa knzlar va o'yinchi yigitlar, Xuttaldan maqomchi ayollar Xitoy imperatori saroyiga yuborilib turilar edi.

O'rta Osiyo kuylari maqom va vaznlarining dilraboligi, raqslarning bosiq va o'ynoqiligi o'sha zamonlardayoq har qanday tomosha ahlini

maftun etib, sehrlab qo'yardi. Ayniqsa, ud va nay sadosida juft bo'lib Choch uyinchi yigitlari ijro etgan mashhur «Choch raqsi» yoki doira chertmasiga ikki chochlik raqqosaning tomoshabinlarga qiyo boqib, imo bilan yelka uchirib tushadigan o'ynoqi «doira raqsi» Xitoy a'yonlarini maftun etib, ularni xayratga solgan edi. Imperator saroyida o'tkazilgan bunday tantanali tomoshalarda Turkistondan borgan dorbozlar, akrobatlar, ko'zboylagichlar, olovyutgich afsunkorlar va qiziqchilar ham o'z mahoratlarini zavq-shavq bilan namoyish qilganlar. Xatto Xitoyning Chan'an shahri aholisi ko'g'irchoq o'yinini ilk bor VIII asrda Turkistondan borgan san'atkorlar ijrosida tomosha qilishga muyassar bo'lgan. Manbalarda qayd etilishicha, birgina Buxoro shahrida usta hunarmandlar tomonidan o'n turdagi cholg'u asboblari yasalgan. Ularning nomlarining yolg'iz o'zi ilk O'rta asrlarda O'rta Osiyoda musiqa, raqs va bastakorlik san'atining darajasi to'g'risida guvohlik beradi.

Shunisi e'tiborliki, ilk o'rta asrlar mulkchiligi sharoitida san'atning ravnaqi ham mamlakatning iqtisodiy va siyosiy barqarorligita uzviy bog'liq bo'lib, u mulkdor tabaqaga qaram edi. Shu boisdan o'z davrining yetuk san'atkorlari hukmdorlarning qarorgohlarida to'planar, xalqning ma'naviy boyligidan ko'proq zodagonlar bahramand bo'lar edi²⁴.

Shunday qilib, VI—VIII asrlarda O'rta Osiyo xalklarining ijtimoiy hayotida yerga egalik qilish munosabatlari shakllanib, mustahkamlanib bordi. Siyosiy hayotda ikki yirik davlat — Eftallar davlati va Turk hoqonligi hukmronligi o'rnatildi. Iqtisodiy hayotda hunarmandchilik, sug'orma dehqonchilik va chorvachilik rivoj topib, ichki va tashqi savdo kengaydi. Madaniy hayotda esa me'morchilik, xat-savod, diniy e'tiqodlar, tasviriy san'at va musiqa ravnaq topib, madaniy aloqalar jonlandi. Natijada

²⁴ А.Асқаров. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Т., “Университет”, 2007, 208-бет.

ilk o'rta asrlarning ma'naviy hayotini o'zida mujassamlantirgan o'ziga xos serqirra madaniyat yaratildi.

III-Bob: “Arab istilosi arafasida O'rta Osiyo shaharliy voha davlatlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti. (So'g'd, Ustrushona, Tohariston, Choch, Farg'ona misolida)” mavzusini tarix darslarida o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarda foydalanish usullari

3.1.Mavzuni o'tishda an'anaviy usullardan foydalanish.

Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng ta'lim tizimimizda katta isloxatlar yuz berdi. Ilm-fan va texnika taraqqiy etayotgan hozirgi kunda ta'lim berishning an'anaviy usullari davr talabiga tulik javob bera olmaydi.

Ushbu muammoni xal etish maksadida Uzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 5-yanvardagi 5-sonli "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiklash to'g'risida"gi qaroriga binoan umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi standartlarini ishlab chiqishning asosiy tamoyillarida umumiy o'rta ta'lim mazmuni, shakli va vositalarini tanlashicha innovatsiya texnologiyalariga, fan-texnika va texnologiyalarning istiqbolli rivojlanishi, jamiyat talablari va ularning zamonaviy holatini hisobga olish ko'rsatilgan.

Mazkur me'yorii xujjatlarda ko'rsatilgan tamoyillarning amaliyotda tadbiqi sifatida yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga kirib kelmoqda.

Pedagogik texnologiya ta'lim jarayonida o'quvchiga zug'um qilmay, ularni qiziqirib, o'qishni, o'quvchilar o'zidagi barcha fikrlarni bayon etishga imkoniyat yaratishni tavsiya etadi.

Darsning bunday usuli orqali o'qituvchi quyidagi muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin:

- o'z vaqtida aloqalarning ta'minlanishi;
- tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoit yaratilishi;

- o'qitish usullarining turli ko'rinishlarda taklif etilishi;
- o'tilgan materialning yaxshi eslab qolinishi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishi;
- o'z-o'zini baxolashning o'sishi;
- o'quvchilarning fan mazmuni, o'kitish jarayeniga bo'lgan ijobiy munosabati;

-muammolar yechimini topish ko'nikmasining shakllannishiga xizmat qiladi.

Bunda biz avvalo an'anaviy dars uslubi hakida ikki og'iz tuxtalsak. An'anaviy uslubning asosiy xususiyati ukituvchi ma'lum axborotni beradi, tushuntiradi, o'quvchi esa bu bilimni xotirasida saklaydi. O'quvchida bilim bor yo'qligi imtixonda shu axborotga doir berilgan savolga bergan javobiga karab aniklanadi. Qisqacha qilib aytganda an'anaviy dars - utilgan mavzuni o'quvchilardan surash, uni mustahkamlash, yangi mavzuning bayoni va uni mustahkamlash asosiga ko'riladi.

Endi an'anaviy uslubda ushbu 1 soatlik (45 minutlik) dars ishlanmasini ko'rib chiqsak.

Darsning maqsadi:

a) ta'limning maksadi: Arab istilosi arafasida O'rta Osiyo shaharliy voha davlatlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti. haqida tushuncha berish.

b) tarbiyaviy maksadi: bu mavzu orkali o'quvchilarni vatanparvarlik, o'z yurti va boshqa xalqlar yurtlariga hurmati bilan qarash, ularda boshqa xalqlar tarixiga hurmat xissini tarbiyalash.

Dars jixozlari:

1. "O'zbekiston tarixi" darsligi.
2. Xarita,

Dars uslubi: an'anaviy dars usuli: og'zaki bayon. Darsning borishi:

1. Darsni tashqil etish (4 minut)

a) Salomlashish

b) Davomat

2 Utilgan mavzuni baxolash (15 minut)

Utilgan mavzu, ya'ni "Arab istilosi arafasida O'rta Osiyo shaharliy voha davlatlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti" mavzusi bo'yicha o'quvchilar bilimini tekshirish va baxolashda quyidagi savollar berilishi mumkin.

Arab istilosi arafasida O'rta Osiyo shaharliy voha davlatlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ahvol qanday edi?

- V—VI asrlardayoq Movarounnahrda ahvol qanday edi?

- So'g'd va Tohariston voha davlatlarining tashqil topishi haqida so'zlab bering.

- Tohariston aholisining asosiy qismi nima bilan shug'ullanardi edi?

- Qaysi xujjatlarda So'g'dning siyosiy tarixi, xukuq va qonunlari, iqtisodiy va diniy e'tiqodlari xususida muhim ma'lumotlar keltiriladi?

Yangi mavzu (18 minut)

Yangi mavzuni bayon qilishdan oldin o'quvchilar e'tiborini darslikdagi "Arab istilosi arafasida O'rta Osiyo shaharliy voha davlatlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti. (So'g'd, Ustrushona, Tohariston, Choch, Farg'ona misolida)" ga qaratadi. 1 masalani tushuntirishga O'rta Osiyo shaharliy voha davlatlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti haqida og'zaki aytib o'tilsa, o'quvchini birmuncha chalkashtiradi, uni eslab qolish ham qiyin bo'ladi. Huddi shu jarayonlarni xaritadan foydalanib tushuntirilsa ijobiy samarasi bo'lishi hammamizga ma'lum.

Mamlakatni boshqarishda ham an'anaviy tartib va udumlar bo'lgan. Narshaxiyning yozishicha, VII asr oxirlarida Buxoroning taxt vorisi xali gudaqligi tufayli uning tul dolgan onasi yurti boshqargan. Ayrim

manbalarda u Xutokxotun nomi bilan tilga olinadi. Malika Buxoroda donolik bilan hukmronlik qilgan, xalk, unga itoatda bo'lgan. U mamlakatni boshqarishda kuyidagi tartibni o'rnatgan edi. Malika mulozimlari bilan har kuni arkning Registon darvozasi oldiga kelib, taxtga utirardi. Malikzoda va dexkrnzodalardan ikki yuz yigit bellariga zarrin kamar va kilich takib kechgacha saf tortib xizmatda turishardi. Malika «podshoxdik ishlari bilan mashgul bo'lar, yaxshilikxa da'vat qilib, yomonlik-dan kdytarar, istagan kishisiga sarpo kiygizib, istagan kishisiga jazo berar edi». Kuyosh botgach malika kdsrga kay-tardi. Ertasi kun boshkd jamoadan yana 200 dexkrnzodalar ikki kdtor saf tortishib, xizmatda dong krtardi. Shu tarzda har bir jamoa bir yilda turt marotaba xizmatga kelishi lozim edi. Narshaxiyning bu ta'rifi bo'yicha birgina buxorxudotlarning viloyat xokimligi boshkdru-vida kdriyb 18 ming mulozim navbat bilan xizmat qilgan.

VI—VIII asrlarda ham mehnatkash aholining hayoti nihoyatda og'ir kechgan. U hammavakt nochorlik, tanglik, xavf-xatar va muxtojlikda yashagan. Ogir kul mexnati evaziga yetishtirilgan maxsulotning bir qismini soliqdar hisobida davlatga topshirib, krlgan rizq-ro'ziga shukrona va kanoat qilib kun kechirgan. Osoyishtalik zamonlarida uzluksiz amalga oshirilgan xasharlar (sugorish shaxoblari kazish, ularni loyqadan tozalash, shahar devorlarini ta'mirlash, qal'a, qasr, ko'shklar bino qilish, ko'priklar kurish va x-q) da ishtirok etishga majbur bo'lgan. Yovgarchilik davrlarida esa lashkarlar safida turib, kindik krni tuqilgan Vatanini tashdi dushman tajovo'zidan mudofaa kdaishda kukragi bilan qalkrn bo'lgan. Yillar davomida tuxtovsiz olib borilgan o'zaro urushlar okdbatida vayron etilgan uy-joylar, shaharu qishloqlarni kayta tiklab, yana yurtini obod etgan. Doimo mexnatni muqadddas bilib, e'tiqod bilan yetishtirgan xalol noni bilan bola-chaqasini bokdan, voyaga yetkazgan va mehnatkash xalq

ommasi safini muttasil tulgazib, buyuk inson zotidan Vatanga munosib avlod qoldirgan.

Shu tariqa o'qituvchi darslikdagi matnni o'zidagi o'qshimcha ma'lumotlar bilan boyitib, yangi dars mazmunini o'quvchiga batafsil yetkazib berishga harakat qiladi va o'z so'zini yakunlab o'quvchilarga dars yuzasidan savol berishlarini so'raydi. O'quvchilar tushunmagan savollariga javob berib bo'lingach, ularga uyga vazifa beriladi.

Uyga vazifa: (3-minut).

Darslikdagi shu mavzuga doir savol va topshiriqlarga javob topib kelish. Daftarga mavzuni konspektlashtirish.

Dars yakunini chikarish: (5-minut)

Dars oxirida o'qituvchi darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholarini e'lon qiladi.

Xulosa

Mazkur bitiruv – malakaviy ishida arab istilosi arafasida ya'ni V-VII asrlarda diyorimizdagi siyosiy voqealar, aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va diniy e'tiqodi haqida ma'lumotlar berilgan.

Bitiruv – malakaviy ishining I-bobida V-VII asrlarda faoliyat ko'rsatgan So'g'd va Tohariston mahalliy voha davlatlari tarixi o'rganilgan.

Mulkdorlik munosabatlari rivoj topib, mamlakat siyosiy jihatdan zaiflashuvi oqibatida V—VI asrlardayoq Movarounnahr bir qancha mayda davlatlarga bo'linib ketadi. Natijada uning hududida ayrim viloyat va vohalarda yirik shaharlarga tayangan 15 dan ortiq mahalliy voha hokimliklari tashqil topgan edi. Bunday davlatlarning eng yiriklaridan So'g'dda ixshidlar, Toharistonda malikshoxlar, Xorazmda xorazmshoxlar, Choch va Iloqda tudun va dehqonlar, Farg'onada ixshidlar hukmronlik qilardilar.

V—VII asrlarda bu mahalliy davlatchalar, avvalda eftallar, so'ngra Turk hoqonligiga bo'ysundirilgan bo'lsada, ammo eftallar ham, turklar ham ularning ichki hayotiga aralashmaydilar. Markaziy hokimiyatga boj to'lab turish bilan o'z mustaqilliklarini ma'lum darajada saqladilar. Bu davlatlarning hukmdorlari o'z atrofidagi mulkdor zodagon dehqonlar va ularning harbiy choparlariga tayanardilar. Chunki ular o'zaro bir-birlari bilan dushmanlik kayfiyatida bo'lib, shu boisdan biri ikkinchisidan cho'chigan holatda yashar edilar.

Ular orasida eng yirigi Samarqand ixshidligi bo'lib, u So'g'diyonaning mahalliy davlatlari konfederatsiyasi tarkibida katta nufuzga ega edi. Bu ittifoqda asosan Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarida joylashgan Samarqand, Maymypg', Ishtixon, Kushoniya, Vardona, Buxoro, Kesh va Naxshab mulklari birlashgan edi. Bu

mulklarning har biri o'z hokimiga va harbiy chokarlariga ega bo'lgan. Ularning ko'pchiligi Samarqand ixshidiga siyosiy jihatdan tobe bo'lsada, ammo Buxoro, Kesh va Naxshablar deyarli mustaqil edi, xatto ular o'z tanga pullarini zarb qildilar. Samarqand ixshidi saroyida ajdodlar ruxiga atab qurbonlik qilish uchun maxsus ibodatxona bino qilingan edi. Unda o'tkaziladigan har yilgi diniy marosimlarda viloyat hukmdorlarining barchasi qatnashardi. Yozma va arxeologik manbalardan ma'lum bo'lishicha, So'g'd hukmdorlari O'rta Osiyo va chet el davlatlari bilan elchilik aloqalarini olib borardilar. Masalan, Afrosiyobda ochilgan devoriy rasmlarda So'g'd hokimi Varxumanning Chag'oniya, Choch va Xitoydan kelgan elchilarni qabul qilish marosimi tasvirlanadi.

Ilk O'rta asr mahalliy davlatlaridan yana bir yirigi Tohariston edet U Surxondaryo viloyati, Janubiy Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston hududlarida joylashgan edi. Bu mustakdl davlat Xuttalon, Chag'oniya, Termiz, Badaxshon, Qabodiyon, Vaxsh, Shuman, Shugnon, Vaxon va boshqalar kabi 27 tog'lik va tog' oldi viloyatlarini birlashtiradi. Ularning har birining uz hokimi, chokarlari bo'lardi. Mahalliy hukmdorlarning eng kuchli va nufuzlisi Xuttalon, Shuman, Kdbodiyon, Shug'non va Vaxon viloyatlarining hokimtari bo'lib, ular harbiy kuchlar zarur bo'lgan paytlarda 50 ming nafargacha chokar tuplay olardilar. Tohariston avval eftallar, so'ngra Turk hoqonligi tomonidan buisundiriladi. Manbalarda ta'rif eti-lishicha, VII—VIII asrlarda Tohariston ahlisining yarmi turk-lar bo'lgan. Uning bir qismi Xitoy manbatarida yuyechji deb atalgan toharlar, ikkinchisi turkiy kdbilalar va uchinchisi esa mahalliy baxtarlar edi. Podshoh zodagonlar va fuqarolari budda diniga siginganlar, qator ibodatxonalari va koxinlari bo'lgan. 25 harfli yozuvi kundalangaga chapdan ungga qarab bitilgan. Aholisi ip va ipak matolardan kiyingan.

Tog'liklari pustin va jun chakmon kiyishgan. Erkaklari soch va soqollarini kirtishlab, ayollari esa uzun soch qo'yib yurishgan.

Tohariston aholisining asosiy qismi utroq dehqonchilik bilan shug'ullanardi. Asosan g'alla va dukkakli ekinlar, qisman sholi va paxta eqilardi. Tog' oldi va tog'li joylarda esa bahorikorlik va uzumchilik rivoj toptan edi. Arxeologik topilmalar orasida lista, bodom, yongoq hamda urik, shaftoli, uzum va olcha danaklari, shuningdek, qovun va tarvuz urug'lari qayd etilgan. Shunga kdraganda, Toharistonda bog'dorchilik va polizchilik keng rivojlangan. Chorvachilikda mayda va yirik shoxli hayvonlardan tashqari ot, xachir, tuya va eshaklar boqilgan. Ilk O'rta asrlarda Toharistonda bo'lgan sayyoxlar uning ikki o'rkachli tuya va pastak otlarining uzoq masofalarga qatnashda nihoyatda chidamli ekanini maktab yozganlar.

V—VIII asrlarda O'rta Osiyoda zardo'shtiy, budda, nasroniy (histianlik), moniy va kam (shomon) kabi bir nechta dinlar mavjud bo'lgan. Ayrim viloyatlarda yaxudiy jamoalari hamda Noxid, Mitra va Siyovush kabi mahalliy ma'budalarga ham siginuvchilar istikomat qilgan. Navruz kunlari Buxoro otashparastlari Siyovush kabri ustida xuroz bugizlab kurbonlik qildilar. Mamlakatda ko'p dinlilik e'tiqodlari rayem bo'lsa-da, ammo ahlining ko'pchiligi olovga topinuvchi ma'jusiylar edi. Otashparastlik Xorazm, So'g'd va Choch viloyatlarida, ayniqsa, keng tarqalgan edi. Kattakichik shaharlarda ma'jusiylarning ibodatxonalari bo'lardi. Ular «vagn» deb, kohinlari esa «vagnpat» deb yuritilardi. Mukaddas otash «azar-xurra» deb atalardi. U maxsus olovxona — «otashkada»larda kechayu kunduz muttasil yonib turardi. Otashkada mutavallilari o'ta zoxid dindorlardan bo'lib, ular «atrabon» deb yuritilardi. Oddiy mexnatkash axdidan tortib zodagonu podshoh-largacha atrabonlarga hadyalar keltirib, ular orqali mukaddas olovdan madad surab iltijo etilardi.

Bu davrda aholi o'rtasida budda dinining ham e'tiqodiy mavqei past emas edi, garchi u So'g'dda deyarli tarqalmagan bo'lsa-da, ammo O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarida, xususan, Toharistonda, Farg'ona va Yettisuvda xmda Sharqiy Turkistonda, ayniqsa, shahar ahlisi O'rtasida keng yoyilgan edi. VI asr oxiri — VII asr boshlarida ayrim Barbiy turk hoqonlari budda dinini qabul etib, butxonalarning kurilipshdahmiylik qiladilar. VII asrda Balx shahrida yuzta, Termizda untacha (ularning krlidikdari Qoratepa, Dalvarzin-tepa va Ajinatepalardan topib tekshirilgan) va Qobodiyonda uchga budda monastirlari bor edi. Ularning har birida ikkitadan to 50 nafargacha roxnb (monax)lari bo'lgan. Ilk O'rta asrlarga mansub ikkita budda ibodatxonalarining krlidikdari Farg'ona vodiysidaga kadimgi Quva shahri harobalaridan qazib urganildi. Ulardan buddaning loydan yasalgan rang-barang xaykali va xaykalchalari topiddi. Termiz yaqinida Zangtepa yodgorliklaridan VI—VIII asrlarga mansub kayin pustlariga bitilgan buddaviy kulyozma matnlari kayd etildi.

Bitiruv – malakaviy ishining II-bobida mahalliy voha davlatlari bo'lgan Farg'ona, Choch, Ustrushonaning arab istilosi arafasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va diniy tarixi o'rganilgan.

Bu davrda Farg'ona vodiysida yana bir ilk o'rta asr mahalliy davlati hukm surardi. Qadimda bu mamlakat Dovon va Farkona deb yuritilgan. Uning podsholari «ixshid» deb atalgan, poytaxti Koson va Axsikat shaharlarida joylashgan. Xitoy manbalarida ta riflanishicha, Farg'ona yerlari juda hosildor, aholisi dehqonchilik bilan kun kechirgan, paxta va sholi ekkan. Unda bog'-u bo'stonlar va gulzorlar mo'l bo'lgan. Koson, Axsikat va vubo kabi yirik markaziy shaharlarida hunarmandchilikning turli sohalari rivoj topib, uning mahsulotlari ichki va tashqi bozorlarda juda..xaridorgir bo'lgan. Qo'shni mamlakatlarga arg'umoqlar, bo *yoq, rangli shisha buyumlar va dori-darmonlar chiqarilgan. Farg'ona vodiysida

o'troq aholi bilan bir qatorda tog' va tog' oldi yaylovlarida ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvadorlar yashagan. Qurama va Qoramozor tog'lari yon bag'irlarida qadimdan yilqichilik bilan shug'ullanilgan. Bu diyorda ko'paytirilgan tulpor otlarning dong'i jahonga taralgan. Farg'onada qo'y, xachir va tuyalar ham boqilgan.

Shunday qilib, VII-VIII asrlarda Farg'ona dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik xo'jaliklari va ichki, tashqi savdo rivoj topgan mustahkam iqtisodiy poydevorli o'lka edi. Uning strategik jihatdan qulay geografik o'rni, mustahkam mudofaa inshootlari bilan ta'minlangan Koson, Axsikat, Qubo kabi yirik shaharlari, tog' qal'alari, vodiylar bo'ylab joylashgan qator-qator istehkomli qo'rg'onlari tufayli bu diyor kuchli harbiy imkoniyatga ega edi. Shularni nazarda tutganda ilk o'rta asrlarda Farg'ona O'rta Osiyoning siyosiy hayotida muhim davlat bo'lgan²⁵.

V-VII asrlarda Chirchiq va Ohangaron vodiylarida ikkita mustaqil ilk feodal davlatlari hukmronlik qildirdi. Manbalarda ulardan bin Choch davlati, ikkinchisi Iloq mulki nomlari ostida tilga olinadi. Chochning poytaxti Chochkat shahri bo'lib, podshohi «tudun» deb yuritilardi. Iloqning poytaxti Tunkat, hokimlari «dehqon» deb atalardi. IV asrda Choch viloyati Eftallar davlatiga, VI asrda esa G'arbiy sharq hoqonligiga bo'ysundiriladi. VIII asrga borganda Choch va Iloq birlashib, yagona davlatga aylanadi va o'z mustaqilligini tiklab oladi.

Choch va Iloq sertarmoq xo'jalikka ega mamlakat edi. Unda sug'orma dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, ayniqsa konchilik, ichki va tashqi savdo yuksak darajada edi. Ilk o'rta asrlarda Choch vohasi o'zil-kesil shakllanib, u 50 ga yaqin sug'orish shoxobchalari vositasida sug'orilardi. Dehqonchilikda ko'proq arpa, bug'doy va tariq ekilardi.

²⁵ Quva (Qubo) asarlar nigohida. "Quva (Qubo) asarlar nigohida" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy seminari materiallari. Farg'ona, 2006, 54-bet.

Ayniqsa, Chochning poytaxt. shahri atroflari obod edi. Unda 50 dan ortiq katta-kichik istehkomlar, feodal qo'rg'onlari va ko'shklari, obod qishloqlar qad ko'targan edi.

Ustrushonaning shimoliy-garbiy rustoqi Fagnonning tarixiy Hududi hozirgi ma'muriy bulinishlar bo'yicha, taxminan Jizzax shahri va tumani Hududiga to'g'ri keladi. Fagnon rustoqining bosh shahri Dizak. Sugd va Choch oraligidagi, aholisi zich joylashgan yagona shahar bo'lib, kup sonli uylari, bozorlari, bog'lari, musofir va savdogarlar uchun karvonsaroylari bilan mashxur bo'lgan.

Ko'chmanchi chorvadorlar bilan Fag'non rustoqi chegara hududida Dizak shahridan bir farsax masofada, IX asrning birinchi choragida Kovus o'g'li Xaydar tomonidan Xudaysar nomli rabod qurilgan. Ushbu rabod Amudaryo va Sirdaryo o'rtasidagi eng mashhur rabodlardan hisoblangan. Ion Xavkal Butun Samarqandda undan yaxshiroq rabod yo'q. Savdogarlarning habar berishlaricha Xudaysarda buloq bor - deb ta'riflasa. Yoqut Xudaysar Movarounnahrdagi shahar bo'lib, Ustrushonaning chegara hududida joylashgan - deb qayd etadi. Ad-Damashkiy "Xudaysar Ustrushona tarkibidagi shahar bo'lib, Samarqand viloyati bilan chegaradosh hududda joylashgan" - deb eslatadi. Bundan tashqari ushbu mavzeda Badr Ko'shayr tomonidan qurilgan oqarsuv bilan ta'minlangan Xasan rabodi ham mavjud bo'lgan. Jizzax hududidagi rabodlar asosan ko'chmanchi chorvadorlardan o'troq xalqlarni himoya qilish maqsadida qurilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddas. Toshkent, "O'zbekiston", 1995.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, "Ma'naviyat", 2008, 172-bet.
3. A.R. Muhammadjonov. O'zbekiston tarixi. Toshkent, "O'qituvchi", 1994, 320-bet.
4. Karim Shoniyozov. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. T., "Sharq", 2001, 464-yet.
5. Sh. Karimov, R. Shamsutdinov. Vatan tarixi. T., "O'qituvchi", 1997, 527-bet.
6. O'. Mavlonov. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari. T., "Akademiya", 2008, 432-bet.
7. A. Asqarov. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. T., "Universitet", 2007, 340-bet.
8. "Zarafshon vohasi va uning tarixdagi o'rni". O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 10 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universiteti, 2001, 145-bet.
9. Quva (Qubo) asarlar nigohida. "Quva (Qubo) asarlar nigohida" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy seminari materiallari. Farg'ona, 2006, 118-bet.

Mundarija:

Kirish

I-Bob: So'g'd va Tohariston mahalliy voha davlatlarining tashqil topish jarayonlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayoti.....

- 1.1. So'g'd va Tohariston voha davlatlarining tashqil topish jarayonlari.....
- 1.2. So'g'd va Tohariston voha davlatlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.....
- 1.3. So'g'd va Tohariston aholisining diniy e'tiqodi va madaniyati.....

II-Bob: Ustrushona, Choch va Farg'ona mahalliy davlatlarining tashqil topishi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti.....

- 2.1. Ustrushona, Choch, Farg'ona mahalliy davlatlarining tashqil topishi.....
- 2.2. Ustrushona, Choch, Farg'ona mahalliy davlatlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.....
- 2.3. Ustrushona, Choch, Farg'ona aholisining diniy e'tiqodi va madaniyati.....

III-Bob: “Arab istilosi arafasida O'rta Osiyo shaharliy voha davlatlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti. (So'g'd, Ustrushona, Tohariston, Choch, Farg'ona misolida)” mavzusini tarix darslarida o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarda foydalanish usullari

- 3.1. Mavzuni o'tishda an'anaviy usuldan foydalanish.....

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....